

ANVAR ALLAMBERGANOV

GULLAYOTGAN CHECHAKLAR



KITOBIM

BIRINCHI

33.3(50'z)
A 45

SHE'RLAR

**Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart**

ilgarigi berilmalar miqdori _____

321.512.133-1 A4

Al-Jabbar (Anvar)

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"IJOD" JAMOAT FONDI

ANVAR ALLAMBERGENOV

GULLAYOTGAN CHECHAKLAR

Adabiy-tanqidiy maqolalar



TOSHKENT
"ADABIYOT"
2020

Nashr uchun mas'ul:
Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi

Mas'ul muharrir:
Rustam MUSURMON

Anvar Allambergenov qoraqalpoq zaminida tug'ilib voyaga yetgan bo'lishiga qaramay, qoraqalpoq adabiyoti bilan birga o'zbek adabiyotini ham chuqur o'rganib, katta jur'at bilan tahlil qilayotganining o'ziyoq ibratli va tahsinga sazovor. Uning adabiy-tanqidiy maqolalaridan ko'rinib turibdiki, yosh adabiyotshunos har bir asarni o'qish davomida ham aqlan, ham qalban, ham ruhan his etib, o'ziga chuqur singdirib olgan. O'z fikr-mulohazalarini ilmiy nuqtai nazar va nazokat bilan ifodalash mahoratiga egaligi bilan ham ushbu to'plamdagi maqolalar kitobxonni o'ziga jalb eta oladi.

Ushbu kitob 2018-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o'tkazgan Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminarida nashrga tavsiya qilinib, "Ijod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

ISBN 978-9943-6473-7-4



© A. Allambergenov, 2020
© "Adabiyot", 2020

GULLAYOTGAN CHECHAKLARNING BULBULI

Anvar Allamberganov Respublika yosh ijodkorlari "Zomin" seminarining 2018-yil To'rtko'lda bo'lib o'tgan mintaqaviy bosqichida ustozlar e'tiboriga tushgan. Hozirgi yoshlar ichida badiiy asar tahlili qo'lidan keladigan, adabiy-tanqidiy maqola yozadigan ijodkorlar kam. Adabiy tanqid xuddi she'riyat, nasr yoki dramaturgiya kabi yirik ijodiy yo'nalish, alohida adabiy tur hisoblanadi. Adabiy tanqidchining iste'dodi shoir va yozuvchining iste'dodidan ortiq bo'lsa ortiq bo'lishi, lekin aslo kam bo'lmasligi kerak. Adabiy tanqidning ham bulbullari bo'ladi. Matyoqub Qo'shjonov, Ozod Sharafiddinov kabi ustozlarimizning maqomi nihoyatda yuksak edi.

Anvar Allamberganovning "Gullayotgan chechaklar" kitobidagi adabiy-tanqidiy maqolalarini o'qib, olis Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanidan o'sha ulug' ustozlarimizning an'alarini g'ayrat-shijoat va ishonch bilan davom ettirayotgan yosh ijodkor yetishib chiqqanidan quvondim. Oltin konidan oltin chiqadi: buyuk bobomiz Abu Rayhon Beruniyning muborak poyi qadamlari tekkan tuproqdan ana shunday iste'dodlar o'sib ulg'ayadi.

Prezidentimiz, uchinchi renessansning poydevorini quramiz, degan so'zlarni Anvar Allam-

berganovday iste'dodli farzandlarimizga ishonib
aytayotganini his etyapman.

Anvar Allamberganov adabiy tanqid sohasi-
da yangi estetik kashfiyotlarni adabiyotimizga
tuhfa etishiga tilakdoshman.

Rustam MUSURMON,
Qoraqalpog'iston xalq shoiri.

HAZRAT NAVOIYNING QORAQALPOQ ADABIYOTIGA TA'SIRI VA ASARLARI TARJIMASI XUSUSIDA

Boy va qadim tarixga ega o'zbek mumtoz adabiyotini bobomiz, g'azal mulkingning sultoni, shoirlar shohi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy ijodisiz tasavvur qila olmaymiz. Navoiy o'zining nodir asarlari bilan turkiy tilimizning naqadar nafis va serjilo ekanligini amalda isbotlab berdi, uning birgina "Muhokamat ul-lug'atayn", ya'ni "Ikki til muhokamasi" asarida tilimizning imkoniyatlari boshqa tillardan qolishmaydigan darajada ekanligini ko'plab misollar yordamida ko'rsatib bergan. "Xamsa" asarining aynan ona tilimizda yozilishining o'zi olamshumul voqea bo'ldi desak yanglishmagan bo'lamiz. Navoiy chashmasidan ko'plab iste'dodlar suv ichgan: Bobur, Munis, Ogahiy, Furqatlar o'z hayotlari mobaynida Navoiy ijodiga qayta va qayta murojaat qilganlar, uni o'zlariga ustoz sanaganlar. Nafaqat yuqorida nomlari qayd etilgan o'zbek adabiyoti tarixida o'chmas iz qoldirgan shoirlarimiz, balki butun bir millat adabiyotining ulug' vakillari yuzaga kelishida ham hazrat Navoiyning o'rinlari beqiyosdir. Qoraqalpoq adabiyoti tarixiga nazar tashlar ekanmiz, Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li, Berdaq Qarg'aboy o'g'li kabi buyuk siymolar ham Navoiy

ijodi bilan tanish bo'lganlar va shuning ta'sirida o'zlarining ijod namunalarini yaratganlar. Berdaqning birgina "Navoiydan savod ochdim" deya yozishining o'ziyoq yuqoridagi fikrlarimizning tasdig'i hisoblanadi. Ajiniyoz esa Navoiy ko'plab murojaat qilgan bahrlarda o'zining g'azallarini bitgan. Bugungi kunda ham qoraqalpoq xalqi Alisher Navoiyni o'zining qadrdon shoiri deb biladi, uning adabiy merosini ma'naviy qadriyatining ajralmas bir qismi sifatida tushunadi. Bunga misol tariqasida Navoiy g'azallariga bitilgan muxammaslar, g'azallaridan ta'sirlangan holda o'zlarining erkin ijod namunalarini yaratishlariyu, ulug' allomaning ijodidan namunalar tarjima qilishlarini keltirib o'tishimiz mumkin.

O'zbek shoirlarining asarlarini qoraqalpoq tiliga o'girish masalasi XX asrning 30-yillaridan boshlangan. Ulug' donishmand shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan qoraqalpoq matbuotida Navoiyning bir nechta asarlari tarjima qilingan holda dunyo yuzini ko'rdi. 1938-yili "Qizil Qoraqalpog'iston" gazetasining bir necha sonlarida Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni M.Dariboyev tarjima-si bilan, "Layli va Majnun" dostoni A. Shamuratov tarjimasini bilan nashr etildi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng shoir Bayniyoz Qaypnazarov "Hayrat ul-abror" dostonini qoraqalpoq tiliga o'girdi. Jo'lmirza Aymirzayev va Navro'z Japaqovlar tarjimalari bilan ayrim

g'azallari qoraqalpoqchaga o'girildi. Maten Mat-nazarov 1961-yilda Navoiyning "Saddi Iskan-dariy" dostonini qoraqalpoq kitobxonlariga taqdim etdi. Bundan tashqari, shoir Daulen Ayt-muratov tomonidan qilingan ayrim g'azallar tar-jimalari 1977-yilda "Qoraqalpog'iston" nashri-yotida bosmadan chiqdi.

Keyingi yillarda ham qoraqalpoq adabiyoti-da Navoiyga qayta-qayta murojaat qilinayapti. O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqal-pog'iston xalq shoiri Ibroyim Yusupovning muxammaslarini olasizmi yoki iste'dodli shoir-lar Abulqosim O'tepbergenov, Turkmenboy Ji-yamurotovlarning g'azallarini olasizmi, Sharo-faddin Ayapov, Jabborbergan Shamuratovlar to-monidan Navoiy g'azallarining qoraqalpoqcha-ga tarjimasini olasizmi, bularning barchasida Navoiy ijod chashmasidan bahramand bo'lib il-homlanish mavjlanib turadi. Ma'lumki, tarjima-ning so'zma-so'z, qisqartirilgan va o'zlashtiril-gan usullari mavjud. G'azal janri o'zining shak-liy xususiyatlari, o'ziga xos ritmi va musiqiyligi bilan ham kishini o'ziga maftun qiladi. Demak, shunday xususiyatlarning barchasi g'azalning ikkinchi umri – tarjimalarda ham ifoda topgan bo'lishi shart.

Tarjimonlar Daulen Aytmuratov, Ibroyim Yu-supov, Abulqosim O'tepbergenov, Sharofaddin Ayapovlarning mohirona tarjimalari bilan allo-ma g'azallarining ikkinchi umri davom etmoqda.

Tarjimada ijodkordan juda katta mas'uliyat talab qilinadi, negaki bir xalq tilidan ikkinchi xalq tiliga tarjima qilingan asar, xoh u nasriy asar bo'lsin, xoh she'riy, yaxshi chiqmasa, tarjimada o'qigan kitobxon, tarjimonning no'noqroq tarjimasiga emas, muallifning o'ziga ixlossizlik bilan qaraydi. Tarjimonga quyidagi bir nechta talablar qo'yiladi: u muallif uslubi, davr ruhi, adabiy an'ana kabilarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lmog'i lozim. Yuqoridagi talablarga javob bermay turib qilingan tarjima to'mtoq, hissiz va jonsiz chiqishi tabiiy, u shaklan tarjima, mazmunan esa quruq so'zlar yig'indisi bo'lib qolishi ham shubhasiz.

Ayniqsa, mumtoz she'riy janrlar, xususan, g'azallarni tarjima qilish o'ta qiyin va mas'uliyatli ishdir. Navoiy esa aynan shu janrda barakali qalam tebratgan shoir. Ohangdor ritmik bo'laklar asosida ish ko'riladigan g'azallarni tarjima qilish uchun aruz nazariyasini puxta bilish, sharq mumtoz poeziyasi an'analalaridan yaxshi xabardor bo'lish kerak. Chunki biror g'azalni, uning vaznini saqlagan holda, boshqa tilga ko'chirish – bu uning ohangi, binobarin, shoirning kayfiyati, tuyg'ularini ham yetkazib berish demakdir.

Yuqorida qo'yilgan talablarga to'laqonli javob bergan holda, Alisher Navoiy ijodidan qilingan tarjimalarni biz "Qoraqalpoq adabiyoti" gazetasi sahifalarida kuzatdik. Xususan, gazetaning 2011-yil 2-sonida Ibroyim

Yusupovning, 2014-yil 2-sonida Abulqosim O'tepbergenovning, 2015-yil 2-sonida Jabborbergan Shamuratovlarning tarjimalari muvaffaqiyatli chiqqan, deyish mumkin. Ularning kompozitsion qurilishi, ma'nosi, ohangi, qofiya va radiflarini saqlashga katta e'tibor bergan. O'zbek va qoraqalpoq she'riy an'alarining bir-biriga o'xshashligi, bu ikki tilning o'ziga xos farqli xususiyatlari bo'lsa-da, ko'p so'zlarning bir xil ma'noni anglatishi tarjimon ishini xiyla yengillashtiradi. Bu ayrim baytlardagi bir necha so'zlarnigina tarjima qilib, shakl va mazmunga putur yetkazmagan holda qoraqalpoq she'rxonlariga taqdim qilish imkonini bergan.

Yozma bitiklar tarjimadan so'ng o'zining ikkinchi umrini boshlaydi. Tarjimadan she'riy asarning qanchalik silliq, asliyatga yaqin chiqishi tarjimonning mahoratiga bog'liq. Asrlar davomida bir qancha avlodlarga xizmat qilgan tarjimalar mavjudligi ayon. Lekin umuman, asl nusxaga nisbatan tarjimaning umri qisqaligini e'tirof etish kerak. Asliyat o'zgarmasligi bilan "ideal" hisoblansa, yaxshi, silliq tarjima zamonlar, makonlar, avlodlar, didlar, estetik tasavvurlar tafovutiga duch kelgan holda, bot-bot o'zgarib turadi. Ba'zan shunday bo'ladiki, yuz yillar davomida bizgacha yetib kelgan she'riy obidalar bir avlodning hayoti davomidayoq o'n martalab tarjima qilinishi mumkin. Lekin biz o'ylaymizki,

yuqorida nomlari tilga olingan tarjimonlarimiz tomonidan o'girilgan ijod namunalari zamonlar va makonlar talablariga javob bergan holda, asrlar osha kelajak avlodlarga yetib boradi.

IBROYIM YUSUPOV IJODIDA INSON MANFAATLARI TALQINI

*“Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”ga
bag‘ishlanadi.*

Yaratilgan ijod namunasi yillar shamolida sovrilib ketmasa, ohori to‘kilmasa, vaqt o‘tishi natijasida uning qimmatini oshaversa, u haqiqiy ma’noda abadiyatga daxldor asar hisoblanadi. Shunday yaratilgan sohibi jahon adabiyoti tarixida o‘zining o‘chmas adabiy merosi bilan iz qoldirgan ijodkor O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni Ibroyim Yusupov edi. U tom ma’noda Kunxo‘ja, Ajiniyoz, Berdaq kabi qoraqalpoq mumtoz shoirlari ijodining davomchisi bo‘ldi. Shuning bilan birgalikda qoraqalpoq adabiyotiga, xususan, qoraqalpoq she‘riyatiga yangicha ruh, yangicha ohang olib kiroldi, desak yangilishmagan bo‘lamiz. Shoirning ijodi qoraqalpoq adabiyoti tarixida yorqin sahifani tashkil qiladi. U bolaligidanoq qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan, o‘spirinlik yillarida esa sharq adabiyoti hamda mumtoz adabiyotimiz namoyandalari bilan, talabalik davrlarida esa rus va jahon adabiyoti namunalari bilan yaqindan tanishib, ulardagi badiiy bo‘yoqdorlikni mukammal ravishda o‘rgangan va shulardan ilhomlangan holda yoniq yurak bilan ijod qilgan.

Shoir qardosh xalqlar va jahon adabiyoti mumtoz shoirlari asarlarini qoraqalpoq tiliga mahorat bilan tarjima qilgan tarjimondir. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, Ibroyim Yusupovning she'rlari jahonning ko'plab tillariga tarjima ham qilingan. Ijodkor faqat nazmiy asarlar bitish bilan cheklanib qolmasdan nasr va dramaturgiya sohasida ham qalam tebratdi. 1963-yilda uning "Qari tutning kuzi" nomli hikoyalar, ocherk va publitsistik maqolalar to'plami bosmadan chiqdi. Shoir "Qirq qiz" pyesasini (Amet Shomuratov bilan birgalikda), 1966-yilda "O'mirbek laqqi" komediyasini, 1986-yili "Iskandar podshoning tushi" dramasini, 1973-yili "Ajiniyoz" operasi librettosini yaratdi.

Ibroyim Yusupovning she'riyat, badiiy tarjima va shu kabi adabiy-tanqidiy ruhdagi maqolalari qoraqalpoq adabiyotshunosligi faniga ham ulkan hissa bo'lib qo'shildi. Uning "Lirika haqida munozara", "Urushdan keyingi qoraqalpoq poeziyasi", "Xalq shoiri Abbos Dobilov", "Dala Orfeyi", "Qoraqalpog'iston – Maxtumqulining ikkinchi shoirlik vatani", "Maxtumquli va qoraqalpoq adabiyoti", "Maxtumquli asarlarini tarjima qilishdagi ba'zi bir anglashilmovchiliklar haqida" kabi qator maqolalari shular jumlasidandir.

"Ijodkor xalqi o'z zamonidan bir necha o'n yillar oldin yurmog'i lozim", – deydi adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov. Shoir Ibroyim Yusupov ham

chinakam ma'noda tanqidchi nazdidagi ijodkor edi. So'zlarimiz tasdig'i uchun shoirning turli yillarda e'lon qilingan she'rlarida o'z mujas-samini topgan inson manfaatlari talqinini mi-sollar bilan ko'rsatib berishga harakat qilamiz. Shoirning 2015-yil "Yangi asr avlodi" nashriyoti tomonidan nashr qilingan "So'fito'rg'ay salomi" to'plamiga kiritilgan yuzdan ziyod she'rlarida inson manfaatlari oliy qadriyat ekanligiga dalil bo'luvchi misollar talaygina, masalan, "Bu dun-yo" she'rida shunday misralar bor:

*Odam o'g'li, o'z ko'nglingni shod ayla,
Ochilsang, ochila berar bu dunyo.*

Shoir yuqorida keltirilgan misralar orqali in-soniyat mehnati tufayli orzular ro'yobiga erishi-shi mumkinligi, farovon hayot kechirishi haqida gapirib o'tadi. Bir qarashda nasihatomuz tarzda bayon qilinayotgan bu misralar chiroyli so'zlar-ning ma'lum qoliplarga solingan, ohangdor va qofiyalashgan variantiday tuyiladi o'quvchiga. Aslini olib qaralganda esa, o'quvchi uchun jo'n bo'lib tuyilgan qatorlarda umr falsafasi yashirin-ganligini, ma'no qatlamlari she'rxon tafakkurini o'yga solishga qodir ekanligini ko'rishimiz mum-kin. "Ochilsang, ochila berar bu dunyo" misrasi-da inson eng avvalo o'zini kashf qilishi, shundan so'ng esa o'z harakatlari natijasida uning uchun butun borliq sir-asrirlari muntazir bo'lishi kabi

chuqur falsafani ko'ramiz. "Bu dunyo" she'rini o'qisangiz, sizda she'r haqida turlicha taassurot uyg'onishi mumkin. Nasihatnoma, pandnoma ruhi ustunlik qilgan qatorlarda insoniyat uchun bu dunyoda yashash yo'riqnomasi bitilgandek go'yo.

*Eldan ortiq yashay deya agar sen,
Manman bo'lsang, o'zing azob chekarsan.*

Inson huzur-halovatiga to'sqinlik qiladigan, unga azob berishi mumkin bo'lgan illatlar qoralanadi. Xususan, yuqoridagi misralarda ta'kidlanayotgan manmanlik ham salbiy illat ekanligini badiiy bo'yoqlar orqali yorqin tasvirlab beradi. Shoir o'z ijod namunalarida inson manfaatlarini ma'lum bir voqelik ostiga yashirgan holda beradi. Nazarda tutilayotgan mohiyat mavzu mazmuni qatida turishi bilan shoirning ijod namunalari adabiyotshunoslar e'tiborini tortadi. Ibroyim Yusupov she'riyatida tabiat tasvirimi, muhabbat tarannumimi, do'stlik rishtasimi, milliy va umuminsoniy tuyg'ular targ'ibimi – barcha-barchasida ozmi-ko'pmi inson manfaatlarining olg'a surilmog'ini ko'rishimiz mumkin. 1968-yil yozilgan "Ko'ngil ko'ngildan suv ichar" she'ri yakunida shunday misralar mavjud:

*Ogoh bo'l, inson bolasi,
Yomondir ko'ngil olasi,
Odam – odamning quyoshi,
Ko'ngil ko'ngildan suv ichar.*

Bir qator salbiy illatlar orasida “Yomondir ko'ngil olasi” deya ta'kidlaydi shoirimiz. Inson o'z manfaatlari yo'lida saodat sohiliga, baxt manzili-ga yetishish uchun bunday illatlarni yo'q qilmog'i zarurligi haqida hukm chiqargandek. Ibroyim Yu-supov ijodida inson haqida gap ketar ekan, uning “Bir odamni bir odam” she'rini chetlab o'tolmay-miz. Quyida keltiradigan parchamizda milliylik va umuminsoniylik, islom dini hamda sharqona qadriyatlar o'z mujassamini topgan:

*Yaxshilik gul ocharmi,
Xalqlar totuv yasharmi,
Suymaganda agarda
Bir odamni bir odam?!*

Shoirning “Ikki quvonch”, “Munojot”, “Vatan”, “Ikki so'z”, “Qoraqalpog'iston kutadi seni”, “Xalq so'zlari”, “Ona tilimga”, “Yigitning jonkuyar do'st-lari bo'lsin” kabi qator she'rlarida voqeabandlik, mavzu ko'lamdorligi, shuning bilan birgalik-da inson manfaatlari talqinini ham ko'rishimiz mumkin. Ijodkor o'z she'rlarida kishi, farzand, odam singari “inson” so'zi sinonimlarini ish-latgan holda mahorat bilan uning fazilatlarini

ulug'laydi, illatlarini qoralaydi, qusurlardan qutulishga undaydi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, Ibroyim Yusupov yaratgan har bir misrasida inson oliy qadriyat ekanligi, uning manfaatlari har narsadan ustunligi ta'kidlangan. Buni tushunish va his qilish uchun shoir she'rlari mutolaasiga tutinish kerak, shundagina yuqorida aytib o'tilgan so'zlarning isbotini topish mumkin.

**ULMAMBET XO'JANAZAROV
IJODIDA UMUMBASHARIY
QADRIYATLAR TALQINI**

Haqiqiy she'r qaysidir ma'noda yozilish jarayonida, shoir yuragidagi kechinmalarning badiiy aksi sifatida qog'ozga tushayotgan paytdagina muallifga tegishli bo'ladi. O'quvchilar hukmiga havola qilingach esa tillardan tillarga, dillardan dillarga ko'chib, she'r mutolaasiga tutingan har bir o'qiguvchi, yaratilgan badiiy ijod namunasida o'zini topsa, xuddiki shoir she'r yozishdan oldin u bilan soatlab suhbat qurgan-u, shuning natijasida mo'jazgina mo'jiza yaralgandek taassurot uyg'otolsa, u yaratiqning muallifi umumxalq bo'ladi, deb aytsak aslo yanglishmagan bo'lamiz.

Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ulmambet Xo'janazarovning ijod namunalarini chinakam ma'noda xalq dilidan olingan, xalq dardi va uning orzu-armonlarini mujassamlashtirgan muhtasham badiiyat ummoni deyish mumkin. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 2018-yil 2-fevraldagi 6-sonida shoirning turkum ijod namunalari e'lon qilindi. "Tug'ilgan yer qadrlı", "Oltin qushim, Olmos qushim", "Poyga", "Qulun chopib boryapti", "She'riyat" kabi she'rlar shular sirasiga kiradi. Hayot falsafasi bilan yo'g'rilgan she'rlarda, umr so'qmoqlarida

har kim ham duch kelishi mumkin bo'lgan voqea-hodisalarni shoir shu qadar badiiy bichim bilan she'r qolipiga solganki, bir qarashda oddiy va sodda (shoir she'riyatidagi bu oddiylik va soddalikni jo'nlik deb tushunish kerak emas – A.A.) bo'lgan, shuning bilan birgalikda badiiy jihatdan puxta va pishiq she'rlar o'quvchini o'z kengliklariga ohanrabodek tortadi. "Tug'ilgan yer qadrli" she'rida shunday misralar keltiriladi:

Bo'lsa ham bir qarichday

Tug'ilgan yer qadrli.

Qatoringdan qolishmay

Yugurgan er qadrli.

Olis yerda adashsang,

Yo'lboshlaring qadrli.

Janjallashib, yarashsang,

Yo'ldoshlaring qadrli.

Tug'ishgandan ranjisang,

Begonangdir qadrli.

Qayg'u bilan g'am yesang,

Peshonangdir qadrli.

Uya bosgan makoning

Uchganingda qadrli.

Tuhmat qilgan do'stingdan

Dushmaning-da qadrli.

Qo'naman deb qayrilsang,

Ko'ling bo'lar qadrli.

Or-nomusdan ayrilsang,

O'lim bo'lar qadrli.

Parcha avvalidan qofiyadosh so'zlar tizmasiga nazar tashlasak, *yer-er, yo'l boshlar-yo'ldoshlar, uchganingda-dushmaning-da, qayrilsang-ayrilsang*, bu o'rinda murakkablashtirilgan yoki jimjimador so'zlardan foydalanilmagan, lekin shunday bo'lsa-da, o'quvchini o'ziga tortuvchi omillar ko'p. Shoir she'rda hayot haqiqatini keskir satrlar bilan ochib bera olgan. Shoirning badiiyat ummoniga chuqur sho'ng'igan o'quvchi shu birgina she'rning o'zida umumbashar uchun xos bo'lgan masalalarning ko'tarilganini ilg'aydi hamda vatan, do'stlik, or-nomus kabi tushunchalarning bir nuqtada kesishganiga amin bo'ladi. "*Bo'lsa ham bir qarichday, tug'ilgan yer qadrli*". Vatan, el, ona zamin, ona yurt, ota makon, kindik qoni tomgan go'sha kabi so'zlar bilan alqanguvchi "*tug'ilgan yer*" nomini azal va abad avliyo-yu anbiyolar, olim-u ulamolar, notiq-u voizlar, shoir-u yozuvchilar ulug'laganlar. Kaft-dekkina vatanning qadrini vatandin ayro tushgandan so'rang, "*musofir bo'lmaguncha musulmon bo'lmas emush*" qabilidagi so'zlarning siqiq va ixcham variantini, bir qarich bo'lsa ham

tug'ilgan yerning qadrli ekanligini she'rning keyingi bandidagi dastlabki misralar izohlaydi: "Uya bosgan makoning, uchganingda qadrli".

Do'stlik – insoniyat yaralgandan beri muqaddas rishta hisoblanadi, do'st esa aziz inson. Dushman – xavf-xatar keltiruvchi, talafot va faloqat yetkazuvchi, jabr-u zulm yetkazishni istovchi odam. Shoir o'z she'rida o'quvchini hayratga solgan holda ba'zi paytlari o'zi uchun bir umr dushmanlik qiluvchi kimsaning qadrli bo'lishi mumkin ekanligiga ishontiradi. Qariyalar duoga qo'l ochganlarida o't va suv ofatidan, shuning bilan birgalikda tuhmat balosidan saqlashini yaratgandan so'raydilar. Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan tushunchalarni lo'nda va aniq misralar bilan oydinlashtiradi va "tuhmat qilgan do'stingdan, dushmaning-da qadrli" deya ta'kidlaydi.

Uyat, or-nomus, inson sha'ni, qadr-qimmati naqadar azizligini bildirish uchun shoir she'rida quyidagi misralarni keltiradi: *"Or-nomusdan ayrilsang, o'lim bo'lar qadrli"* va bu orqali yuqorida ta'kidlagan tushunchalarning mohiyatini to'laqonli ravishda ochib beradi.

Biz shoirning "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" haftanomasida berilgan turkum she'rlarining atigi bir donasigagina atroflicha to'xtaldik. Muxtasar qilib aytganda, Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ulmambet Xo'janazarovning keng qam-

rovga ega, mavzu jihatidan rango-rang bo'lgan boy ijodiy merosi mufassal tarzda o'rganiladigan hamda risolalar, monografiyalar, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari obyekti sifatida tadqiqot uchun munosib, noyob durdona hisoblanadi.

TO'LIBOY QOBULOV SHE'RLARIDAGI AN'ANAVIYLIK VA O'ZIGA XOSLIK

Adabiy turlarga razm soladigan bo'lsak, inson ruhiyatiga, har qanday holat-u kayfiyatiga boshqalariga nisbatan eng yaqin bo'lgani – bu lirik tur hisoblanadi, nazdimizda. Bolakayning biyron-biyron maktab, qish, qorbobo haqidagi, maktabni bitirish arafasidagi o'spirinning xayolini band qilgan sinfdosh qiz haqidagi yoki talabalik onlarini allanechuk entikish bilan eslagan holda do'stlik, yoshlik haqida to'lqinlanib she'r o'qiyotgan yoshi katta insonlarni uchratsangiz, yoinki o'sha holatini ko'z oldingizga keltirsangiz, yuqoridagi gapimiz nechog'liq haqiqat ekanligiga o'zingiz amin bo'lasiz. She'riyat har xil shakllarda va har xil ko'rinishlarda odamzod tug'ilganidan to vafoti qadar unga hamrohlik qiladi. Shu o'rinda Odam Atoning o'z farzandi vafoti munosabati bilan aytgan marsiyasini biz yer yuzida aytilgan ilk she'r deb qaraydigan bo'lsak, she'riyatning tarixiy ildizlari mana qayerga borib taqaladi. Almisovdan beri mavjud bo'lgan, qanchadir minglab takomillashuv bosqichini bosib o'tgan va bu jarayon hamon davom etayotgan bir pallada To'liboy Qobulov she'rlari xususida quyidagi ba'zi mulohazalarni bildirib o'tsak. Bir qarashda yengil, ravon va huzurbaxsh tarzda

o'qiluvchi she'rlar undagi satrlar qatiga yashiringan falsafa o'quvchini hayratga soladi, desak yanglishmagan bo'lamiz. Misol uchun, "Sen bor – dunyo bor" she'rini ziyraklik va diqqat bilan mutolaa qilishga tutinaylik.

Sen bahorni boshlab kelding olamga,

Endi bahor kelar senga salomga.

Guldek yarashursan, chechak sochursan,

Har to'rtta faslga – har bir maqomga.

Hali senga necha g'arib qul bo'lar,

Ey sevimli dilbar, sen bor – dunyo bor.

She'ring dastlabki qo'sh qatorini imkonimiz qadar sharhlashga o'tsak. "Sen bahorni boshlab kelding olamga" satrida bahor so'ziga e'tibor qaratmoq lozim, bunda biz bilgan, davomiyligi va davriyligi, o'z-o'zidan tabiiy hol hisoblanuvchi to'rt faslning biri bahor emas. Bu bahor an'anaviy, muttasil davomiy hodisa bo'lishdan oldingi bahorni bu ochun aro ilk qadam qo'yishiga sababchi bo'lgan shaxs sensan deya lirik qahramon ta'kidlayotir. Ikkinchi satrdagi "Endi, bahor kelar senga salomga" misrasi orqali shu narsa anglashiladiki, sen borliq uzra boshlab kelganing sabab (muayyan vaqt taqozosi bilan) bahor sening diydoringga oshiqadi va har safar salomlashish uchun o'zi keladi, degan qarashni ilgari sursak xato bo'lmaydi. She'rdan olingan mo'jazzgina parchadagi *bahor, fasl, gul, chechak* so'zlari

shoirlar ijodida bot-bot tilga olinadi, barcha she'rxonlar uchun tanish an'anaviy hodisa hisoblanadi. Hattoki bu *chechak sochursan, necha g'arib qul bo'lar, sevimli dilbar* kabi so'z birliklari ko'pchilik shoirlar tomonidan qo'llanilishi takror bo'lganligi sababli unchalik ham ohorli emas. Lekin ta'kidga sazovor bir hodisa borki, u ham bo'lsa, shoirning shu so'zlar orqali betakror tashbehni kashf etishi, bu o'z o'rnida she'riyatning salmog'ini oshirib, badiiy jihatdan boyishi uchun xizmat qiladi.

Chanqovuz – ming yillardan buyon butun turkiy xalqlar uchun e'zozli cholg'u asbobi. Chalg'uvchi uchun ham hech qanday malolsiz, tinglovchi uchun ham gohida hazin, gohida jo'shqin yang-raydigan ota-bobolarimizning mehnati mahsuli bo'lgan mo'jizamonand yaratiq. Chanqovuz haqida turli xil afsona va rivoyatlar, uning kelib chiqish tarixi bilan bog'liq bo'lgan har xil qarashlarning badiiy adabiyotda tasvirlangan variantlarini ko'plab uchratishimiz mumkin. Chanqovuz bilan bog'liq bo'lgan she'rlar, qo'shiqlar, xalq dostonlarida u haqida keltirilgan parchalar turlicha. Shoir T.Qobulov chanqovuz va uning ohangi, ya'ni "nag'ma"si haqida "Chanqovuz" she'rida quyidagicha yozadi.

Qiz-juvonlar qo'zg'ab yurak dardlarin,

Ochiq aytgan oshiqlikning shartlarin.

Olisga ot, yaqinga xat jo'natib,

*Asir olgan yigitlarning mardlarin,
Bir chiroyli nag'mang uchun, Chanqovuz.*

*Oltin tiling nur taratgan bahorday,
Unda tilsim, bir ajoyib sir borday.
Chappar urib gullayotgan dunyoning
Go'zalligi senga bo'lgan nisorday,
Bir chiroyli nag'mang uchun, Chanqovuz.*

*Onam seni sandig'ida saqlagan,
Saqlamasa, ko'ngli qaror topmagan.
Qoraqalpoq – sahro bulbuli deya,
Vatanimning o'zligini oqlagan,*

Bir chiroyli nag'mang uchun, Chanqovuz.

O'ziga ohanrabodek tortuvchi, sirli tovishi bilan maftun etguvchi chanqovuzning siri va sehri uchun kimlar nimalar qilganini bir-bir sanaydi shoir. Xalqning, vatanning, millatning tarixida ham chanqovuzning o'z o'chmas izi bor ekanligini intihodagi uch satr orqali o'quvchiga yetkazib berishga harakat qilgan. "Qoraqalpoq – sahro bulbuli deya, Vatanimning o'zligini oqlagan, Bir chiroyli nag'mang uchun, Chanqovuz".

She'riyatda bo'g'inlar soni, uning ritmi inson kayfiyatiga ta'sir qiluvchi omil hisoblanadi. Deyarli har bir shoir ijodida kuzatiladigani kabi T.Qobulov ijodida ham qisqa bo'g'inlardan

tashkil topgan, ammo badiiyligi jihatidan pishiq yaratilgan sof lirik she'rlar mavjud. Ularning ko'pchiligi ohangdorligi, tabiiyligi, haqiqiy kechinmalarni o'zida jamlaganligi bilan e'tiborga molik. Masalan, "O, sevgilim" she'rida shoir lirik qahramon tilidan oshiq ko'ngil kechinmalarini birin-ketin sanab o'tadi.

Yangrayotgan dutorning

Tori bo'lsang, deb edim.

Men – vaslingga xumorning

Yori bo'lsang, deb edim.

Qo'lga qo'ngan ko'kkina

Kaptar bo'lsang, deb edim.

Qo'shiq yozsam sho'xgina...

Daftar bo'lsang, deb edim...

Shoir ijodiga mansub bo'lgan she'rlarning bir-ikkitasi orqali ijodkorning badiiyat ummoni naqadar teran ekanini anglash mushkul emas. Yuqorida keltirilgan parcha "O, sevgilim" she'ri-ning qurilishi ham o'quvchini o'ziga tortishi tabiiy holdir, masalan, dastlabki banddagi birinchi va uchinchi satrlarning oxirgi so'zlari o'zaro qofiyadosh "dutorning", "xumorning", endi ikkinchi va to'rtinchi satrlardagi dastlabki so'zlarga e'tibor qaratsak "Tori", "Yori". Ikkinchi bandda ham xuddi shunday holatni kuzatishimiz mumkin.

Bir gap bilan aytganda, Qoraqalpog'iston xalq shoiri To'liboy Qobulovning she'rlaridagi an'anaviylikni uning o'ziga xosligisiz, shoir o'ziga xosligini an'anaviyliksiz tasavvur qilish mahol. So'zlarimiz naqadar haqiqatga yaqinligini bilish uchun esa uning she'rlarini mutolaa qilishga kirishibgina amin bo'lishingiz mumkin.

USLUB VA BADIY MAHORAT

ONA – Olloh yaratgan mo'jizalar ichida eng mukammali, Ona – insoniyatning borligi, bu tushunchaga har qancha ta'rif-u tavsif, sharh-u izoh berganingiz bilan uning adog'i, cheki-chegarasi yo'q. Jahon adabiyotida ham, o'zbek adabiyotida ham ona haqida asarlar bitilgan ta'rif-u tahsinlar aytilgan, bir qarashda buyuk iste'dod sohiblari, sohibi kalomlar bisotidagi marjonlarga teng so'zlarni *ona* so'zini va uning o'zini ta'riflash uchun sarf etgandek, ulardan ortiq qilib aytish, nafaqat ortiq qilib aytish, balki ular qo'llagan tashbeh-u tahsinlarning yarmicha so'z aytish maholdek tuyiladi go'yo. Negaki muqaddas dinimizning muborak manbalari bo'lmish Qur'oni Karimda, hadisi sharifda to'kis aytilgan va uning xizmatiga buyurilgan. Necha ming yillik boy tarixga ega mumtoz adabiyotimizda, XX asr adabiyotida qator-qator go'zal badiiy asarlar yaratilgan. Ona Allohning shunday mukammal yaratig'iki, u ijod ahli uchun bitmas-tuganmas ilhom manbayi ham. Shu kunga qadar o'zbek adabiyoti nasrida O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asariga onalar uchun qo'yilgan haykal deb baho beriladi, bu haqqi-rost gap. Lekin Nazira Matyoqubovanning "Onajonginam"

to'plami bilan tanishib, she'riyatimizda ham onalar uchun yangi bir muhtasham haykal qad rostlaganiga amin bo'ldim.

To'plamning nomlanishidan ham anglashiladiki, undagi ijod namunalarining markazida hazrati Ona turibdi. "Onajonginam" nomli jamlanmaga kiritilgan she'rlar sharhi-yu tahliliga kirishishdan oldin uning peshlavhasiga e'tibor qaratsak. "Onajon" – bu so'z hamma uchun tanish, hamma uchun ma'lum, eng qizig'i, so'zning keyingi qo'shimchalari "-gina" va egalik qo'shimchasi "-m" (birinchi shaxs birlikda so'z oxiri unli harf bilan tugasa "m", undosh harf bilan tugasa "im" qo'shimchalari qo'shiladi) haqida to'xtalsak. Mustaqil so'z turkumlaridan biri otlarning "kichraytirish, hurmatlash va erkalash shakllaridan biri "-gina" hisoblanadi. U bundan tashqari achinish ma'nosini ham bildiradi". So'z oxiridagi "m" esa egalik qo'shimchalaridan biri, birinchi shaxs birlikda qo'llaniladi. Kitobning nomlanishida qancha ma'no mujassamligiga unchalik ham e'tibor qaratavermaymiz. To'plamga kiritilgan she'rlarni diqqat bilan o'qisangiz, u naqadar topib nomlanganiga, sarlavhaga e'tibor bersangiz, kitob nomiga mos she'rlar kiritilganiga amin bo'lasiz. She'rlarni o'qishingiz hamonoq biz urg'u bergan "gina" qo'shimchasi bekorga qo'shilmagani, ularda erkalashni ham, hurmatlashni ham, hatto achinishni ham his qilasiz. Biz bularga

nomma-nom to'xtalmaymiz, negaki, shunday qilsak, jamlanmaga kiritilgan to'qson foiz she'rlarni sanashimizga to'g'ri keladi. Buni bilish, his qilish, amin bo'lish uchun to'plamni o'qishingiz, diqqat bilan mutolaaga tutinmog'ingiz kifoya qiladi.

Nazira Matyoqubova nomi "Tog'lar ishq" kitobi bilan tanish, to'plamdagi she'rlar oddiyligi, soddaligi va samimiyligi bilan taassurot qoldirgan. "Onajonginam"dagi she'rlar esa hayrat va havas uyg'otdi. Shoiraning badiiy mahorati, so'z qo'llashdagi o'ziga xos uslubi she'rxonni ohanrabodek o'ziga tortishi bilan ahamiyatlidir. Uning "Kuz, ketasan onamga o'xshab" she'rining sarlavhasidanoq ikki xil ma'no anglashiladi. Og'zaki nutqimizda "onamga o'xshab ketasan" deb qo'llaniladigan shakl, ya'ni xususiyat anglashilsa, ikkinchi bir ma'nosidan "yurish, ketish" harakat tushuniladi. Shoir bir paytning o'zida poetik mahorat bilan bir so'zga ikki xil ma'no yuklaydi va shuning bilan birgalikda she'r matnida betakror tashbehlar qo'llash orqali she'rxonni o'zi bilan xayolot safari sari olib ketadi.

Qahraton oldidan zamin ustiga

Turfa yaproqlardan ko'rpalar to'shab.

Ko'nglingni xotirjam qilib, ona kuz,

So'ng sekin ketasan onamga o'xshab.

Har safar takrorlanuvchi, odamlar ko'nikkan kuz faslida daraxtlar barglarining to'kilish holati-

ni, ya'ni sodir bo'layotgan voqelikni obrazli tarzda akslantirish, bu mahorat belgisi. O'xshatish tabiiy va yorqin bo'yoqlarda berilgan, hech qanday izoh talab qilinmaydigan o'xshatish, ona yotish oldidan farzandidan xabar olib, uning ustiga ko'rpa tortishi-yu, kuz o'z safari oldidan zamin uzra barglari bilan ko'rpa to'shashi. Yuqoridagi satrlarda kishi e'tiborini tortadigan yana bir narsa bor, u ham bo'lsa "ona kuz" o'xshatmasi. Biz zumrad bahor, saxovatli yoz, oltin kuz, kumush qish o'xshatmalariga allaqachonlar ko'nikib ulgurganmiz, she'riyatimizda yana bir yangilik bo'lar hodisa shuki, kuz onaga qiyoslanayotir va bu qiyos she'r davomida o'z isbotini ham topmoqda.

She'r – kechinma va kayfiyat mahsuli, shartli ravishda kechinma ikki xil bo'ladi: birinchisi – oniy lirik kechinma, ikkinchisi – xotira lirik kechinma. Shoiralarida xotira lirik kechinmaning bosimligiga guvoh bo'lamiz. U onasi bilan bog'liq xotiralarni she'rga solish orqali betakror ijod namunalari yaratgan. Bunga yaqqol misol sifatida "Qutlardingiz hammadan bu-run", "Arg'imchoqlar uchar edik", "Quduq" kabi bir qancha she'rlarni keltirishimiz mumkin.

Bog'imizning o'rtasida quduq bo'lardi.

Biz quduqqa qaramasdik qo'rqinch, hadikdan.

Ona, yozning jazirama kunida, muzday

Ayron olib berardingiz o'sha quduqdan.

Bobom tomon yugurardik, ayronni ichib,

*Chuldur-chuldur tilimizda turfa savollar.
Ayron qaydan paydo bo'lar bizning quduqda,
Hayratimiz oshirardi shubha-gumonlar.*

San'at – da'vat, adabiyot – da'vat, she'riyat – da'vat, bular insonni ezgulik sari boshlovchi, mehr-oqibat kabi tuyg'ularni mustahkamlovchi ijobiy hodisalardan biridir. Shu mazmundagi yaratishlar shoira ijodiga ham begona emas, misol uchun, "Ogoh bo'ling, farzandi aziz", "Yo'lingizni buring onangiz tomon", "Onangni bag'ringga bosgin" kabi she'rlarini aytishimiz mumkin.

*Har kuni bolangni bag'ringga bosib,
Ertangi kun uchun olasan taskin.
Kechagi kun uchun quchog'ing ochib,
Kel, bugun onangni bag'ringga bosgin.
Har kuni bolangni bag'ringga bosib,
Deysan, tog'lardan-da balandroq o'ssin.
Siz meni tog'lardan buyuk qilgan, deb,
Kel, bugun onangni bag'ringga bosgin.
Har kuni bolangni bag'ringga bosib,
Oldingga maqsadlar qo'yan keskin.
Umrin uzaytirar maqsadlar bilan,
Kel, bugun onangni bag'ringga bosgin.*

She'r qurilishida ham o'ziga xoslik mavjud bo'lib, har uchala band boshlanma satri bir xil takrorlanadi: "Har kuni bolangni bag'ringga bosib" va har uchala band yakunlovchi satrlari ham bir xil takrorlanadi: "Kel, bugun onangni bag'ringga bos-

gin". O'zbek she'riyatida ko'p hollarda har bandning oxirgi satrlari yoki har bandning old satrlari bir xil takrorlanadi. Shoiraning adabiyotimizda kam uchraydigan (balkim, mutlaqo uchramas) band boshidagi va band oxiridagi satrlarni takrorlash orqali ma'noni kuchaytirish uslubi ta'kidga sazovordir. Nazira Matyoqubova talqinida tasvir ruhiyati uch o'lchamga solinadi. "Kecha – bugun – ertaga", "onang, sen, bolang" aloqalantirilgan, ya'ni bir-biriga bog'liq bo'lgan, bir-birini to'ldiradigan uchlik munosabati (kecha-bugun-ertaga, onang, sen, bolang) idrok sezgisini harakatga keltiradi. Shuning bilan birga she'rxonni o'ylashga, mu-shohada yuritishga da'vat etadi. Shoir she'rlarini xulosalamaydi, aksincha, o'ylangan, mushohada yuritilgan fikrlar orqali o'quvchining o'zi xulosa chiqarishi uchun zamin hozirlab qo'yadi.

So'zimiz avvalida ta'kidlaganimizdek, "Onajonginam" to'plami onalar uchun qo'yilgan nazmiy bir haykal. Muhtasham va muhtaram bu to'plam avvalo muallifga, qolaversa, barcha adabiyot, she'riyat ixlosmandlariga muborak bo'lsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hamroyev M. *Ona tili. Qo'llanma.* – Toshkent: "Sharq", 2016.

2. Matyakubova Nazira. *Onajonginam.* – Toshkent: "Adabiyot uchqunlari", 2018.

POKIZA TUYG'ULAR TARANNUMI

XX asr o'zbek adabiyoti, xususan, she'riyatining yorqin namoyandasi, Cho'lpon boshlab bergan Yevropa she'riyatiga hamohang o'zbek modern she'riyati deb nomlangan ulug' yo'l davomchisi Rauf Parfi edi. Hassos shoir Rauf Parfi o'zining badiiy va shakliy jihatdan rang-barang ijodiy namunalari bilan adabiyotimizda o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab bo'y ko'rsata boshlaydi. Rauf Parfi o'z uslubiga, o'z soziga, o'z ovozigaga ega, Asqad Muxtor ta'biri bilan aytganda, yaralari ochiq, dardli shoir edi. Rauf Parfi she'rlarini ko'pchilik murakkab deb hisoblaydi. Shoir o'z she'rlarida she'rxonga hukmni bermaydi, badiiy xulosa yasamaydi. Shoir qo'llagan metaforalar esa she'rlarni murakkablashtirish uchun emas, aksincha, kitobxonni o'ylashga, mushohadatalab she'rxonning ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi – bu birinchidan. Ikkinchidan, o'sha davrda adabiyotimizda endigina o'zining shakl-shamoyilini topayotgan modern she'riyatiga xos bo'lgan xususiyatlardan biri edi bunday yo'sinda ijod qilish. Har bir shoir, yozuvchining o'zigagina xos bo'lgan uslubi, yo'nalishi bo'ladi, bunday murakkab, bunday metaforik she'riyat Rauf Parfiga xos bo'lgan Raufona yo'nalishdir. She'riyat azal-azaldan inson oro-

yishi uchun xizmat qiladigan vosita hisoblanadi. Rauf Parfi she'rlarini o'qir ekanmiz, xayolot dunyosiga g'arq bo'lish bilan birga salqin va epkin tuyg'ular iskanjasida qolamiz va yana ruhimizni qandaydir pokiza hislar chulg'aydi. Quyidagi to'rtlik yurakka sizuvchi tiniq tuyg'ularimizning boshlanishiga isbot bo'la oladi.

*Shirin uxlar tong chog'i go'dak,
Uxlar go'dak yo tong ko'ksida
Yoki go'dak quchog'ida tong
Uxlar shirin ham tinch, osuda.*

Bu to'rtlikda hayot haqiqatining badiiy ko'rinishi namoyon bo'ladi *tong + go'dak*. Tong – yangi kunning boshlanish qismi. Go'dak esa butun boshli bir umrni boshidan kechirish uchun dunyoga kelgan insondir, *go'dak + tong*. Lo'nda qilib aytganda, har ikkala so'z ham boshlanish, debocha ma'nolarini ko'rsatib turibdi. Shoir esa buni shu to'rtligida aks ettirishga harakat qilgan va to'laqonli ravishda buning uddasidan chiqqan. Yuqorida ta'kidlaganimiz – salqin, epkin va munis tuyg'ularimizni junbishga keltiradigan she'rlar quyidagilardir: "Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar...", "Yaproqlarda shamol o'ynar...", "Tashqarida shovullar shamol...", "Shivirlama menga, ey shamol...", "Qayga uchmoqdasiz, qayga, bulutlar..." Bu kabi she'rlar ro'yxatini uzoq davom ettirishimiz mumkin.

She'riy talantning to'qson foizi, bu – farosat, andoza, ohang va so'z tuyg'usidir. Ushbu to'rt narsa mavjud bo'lsagina she'r, go'zallik, poetika ustida so'zlash, muhokama, tahlii yuritish mumkin.* Biz so'z yuritayotgan Rauf Parfi she'rlari aynan yuqorida aytilgan to'rt unurni ham o'zida mujassamlashtira olgan mukammal she'rlardir.

*Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar,
Tomchilar tomchilar sochimga.
Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar
Ham qayg'umga, ham quvonchimga.*

Bu she'rni o'qib aytishimiz mumkinki, lirik qahramon sokin yomg'ir paytida yolg'iz o'zi o'ylar girdobida ketayotgan odam, deb. Lekin Rauf Parfidek ulug' so'z san'atkori bu misralar orqali faqatgina shunday deyayotganmikin. Ma'lumki, she'riyatda yomg'ir ilhom ramzi hisoblanadi, ilhom esa ilohiy tuyg'u, qayg'uda ham quvonchda ham shoir kayfiyatini ko'rsatib turadi. Yomg'ir esa tabiat hodisasi, muhabbat fasli bo'lmish bahorda ham, ayriliq va xazonrez kuzda ham yog'averadi. Shoir aytayotgan ham qayg'u, ham quvonch – shu quvonch, shu qayg'u emasmikin? She'rning oxirgi satrlariga e'tibor beraylik:

*Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar,
Yog'a boshlar qog'ozga ko'ngil.*

She'r boshidagi shig'alab yog'ayotgan yomg'ir she'r yakuniga kelib ko'ngil kechinmalarining qog'ozga yomg'irdek yog'ilishini ta'kidlash bilan yakunlanadi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Rauf Parfi yangi o'zbek she'riyati asoschilaridan biri sifatida o'zidan boy ijodiy meros qoldirdi, u qoldirgan ilhom chashmasidan ko'p asrlar davomida ijodkorlar va keng ko'lamli she'rxonlar unumli foydalanadilar va o'zlariga bir olam taassurot oladilar.

MODERN SHE'RIYAT HAQIDA MULOHAZALAR

O'zbek she'riyatiga modernizm ko'pchilik uchun yangilikdek va ayni paytda ko'pchilik uchun safsatabozlikdek bo'lib kirib keldi. Qaysidir ma'noda XX asrning boshlarida Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosirlar tamal toshini qo'yib bergan o'zbek modern she'riyatining boshlanishini ko'pchilik yangi o'zbek she'riyati deb ham ataydilar. Mo'jazgina maqolamizda bu atamalarining qaysi birisi to'g'ri yoki qaysi birisi noto'g'ri ekanligi haqida emas, balki hozirgi o'zbek modern she'riyatida ramziylik va falsafiylik, o'zbek mumtoz adabiyotidagidan ham, an'anaviy shakldagi she'riyatdan ham qolishmasligini, mazmun va ma'no jihatidan keng ko'lam kasb etishini ko'rsatib berishni maqsad qilib qo'yganmiz.

Insoniyat yaralgandan beri adabiyot uning ruhini oziqlantirish, unga ma'naviy zavq berish va o'zida estetik go'zallikni namoyon etish kabi qonuniyatlarni o'zida mujassam etgan. Umuman olganda, biz fikr yuritmoqchi bo'layotgan modern she'riyat, aniqroq qilib aytganda, o'zbek modern she'riyati ham ayni qonuniyatlarni o'zida mujassam qila olgan. Lekin bizning yuqoridagi so'zlarimizga o'zlarining qat'iy e'tirozini bildiruvchilar ham bor.

Ularning fikricha: "Modernizm Yevropa adabiyotida bir necha asrlar oldin paydo bo'ldi, bo'y ko'rsatdi va bugungi kunga kelib "iste'mol"dan chiqdi, o'zbek modern asarlari esa G'arb adabiyotiga ko'r-ko'rona taqlid mevasi, shunchaki bir safsatabozlik". Bunday qaraguvchilar ham talaygina. "Bizdagi yangi (modernnamo) adabiyotning milliy zaminda ildiz otganligi haq gap. Ha, bu adabiyot Yevropa modern adabiyotidan ko'chirilgan nusxa yoki unga taqlid emas. U bizning an'anaviy yo'limizdan boshqacharoq shakl va mazmunga ega o'z adabiyotimizdir". To'g'ri, milliy mustaqilligimizdan keyin ijod erkinligi to'laligicha ta'minlandi. Shu vaqt mobaynida modern adabiyotimiz ham ancha bo'y ko'rsatdi. Shunga qaramasdan, bugungi o'zbek modern adabiyoti, xususan, o'zbek modern she'riyati o'z o'zaniga to'laligicha tushib ketishi uchun ham bu vaqt kamlik qilayapti. Qisqa vaqt ichida ham ijodkorlarimiz tomonidan talaygina modern adabiyot namunalari yaratildi. Nasrda T. Rustamovning "Kapalaklar o'yini" romani adabiy doiralarda ko'pgina bahs-munozaralarga sabab bo'lgan bo'lsa, nazmda Abduvali Qutbiddinning "Izohsiz lug'at", Bahrom Ro'zimhammadning "Davsaman", "Terakka yaqin yulduz", "Tovushsiz qadam", Faxriyorning "Ayolg'u", "Dardning shakli", Bektemir Pirnafasovning "Tong yoqasi", Go'zal Begimning "Sukunat jaranglari", "Majnun-

soat", "Uchayotgan yaproq soyasi" kabi she'riy to'plamlari o'zbek modern she'riyatining chin ma'nodagi yangiligi deb aytsak, yanglishmagan bo'lamiz.

Modern she'riyatda qofiya, turoq, vazn, musiqiylik kabi she'r uchun zarur bo'lgan unsurlar mutlaqo uchramasligi mumkin. Lekin modern she'rda, albatta, ramziylik mavjud bo'ladi. Modern she'r ramzga va falsafaga, albatta, murojaat qiladi va bu murojaati bilan she'rxonga-da o'z ta'sirini o'tkazadi. "Ruhning holatini aks ettirish uchun ramzlarga, mavhum ishoralarga murojaat qilayotgan Faxriyor, Tursun Ali, Bahrom Ro'zimuhammad, Ulug'bek Hamdam, Go'zal Begim, Sanobar Mehmonova kabi shoirlar ta'sirida she'rxonning badiiy didi noziklashib bormoqda. Ular she'rda axborot emas, ichkinlik, tuyg'u ifodasini emas, ishora, uning "parda ortidagi tasviri"ni izlay boshlaydi. Shu tariqa modern she'r shoir bilan o'quvchining birgalikdagi ijodiga aylanadi". Bunday hamkorlikni istamagan she'rxon she'rdagi ramzlarni tushunmagan holda va yoki tushunishni istamagan holda modern she'r haqida noto'g'ri tasavvur hosil qiladi. Modern namunalari o'quvchi saviyasi darajasi tomon tushib kelmaydi, aksincha, o'quvchini o'ylashga, fikr yuritishga, falsafiy va mantiqiy xulosalar chiqarishga undaydi, yana takror

aytamizki, o'ylanib miyasini zo'riqtirishni istamagan she'rxon modern she'r haqida umuman noto'g'ri fikrga boradi.

O'zining she'rlarida siqiqlik, ixchamlilik, falsafiylik, mantiqiylik, obrazlilik va ramziylikni mujassam qila olgan hozirgi o'zbek modern she'riyatining vakillaridan biri Bektemir Pirnafasovdir. U 1975-yil Navoiy viloyati Navbahor tumaniidagi Kavobi qishlog'ida tug'ilgan. 1998-yil ToshDU ning jurnalistika fakultetini tugatgan. Shoirning "Tong yoqasi" nomli she'riy to'plami nashr etilgan. Bundan tashqari, "O'zbek modern she'riyati", "Yoshlar kitobi" kabi majmualarda va respublikamizning adabiy-badiiy nashrlari bo'lgan gazeta va jurnallardan "Sharq yulduzi", "Yoshlik", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Kitob dunyosi" kabilarda ijod namunalari tez-tez e'lon qilinib turadi. Shoirning to'rt qatordan iborat "Parishonlik" deb nomlangan she'rini tahlilga tortishga harakat qilsak.

*...Yo tun bu, yoki u ham yo'q,
Yana yoki mening ko'zlarim yumuq
Yo sukunat hozir, yo bor bir jarang,
Yana balki qulog'im garang...*

Bektemir Pirnafasov ijodini kuzatar ekanmiz, unda tun manzarasining qora va quyuq bo'yoqlarda berilganini ko'rishimiz mumkin. Shoir

“tun”ni boshqa o‘zbek modern she’riyati vakillariga qaraganda o‘z ijodida ramz darajasigacha olib chiqdi desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Yuqoridagi she’rning avvalida ham shoir tun manzarasini eslatib o‘tadi. “... Yoki tun bu, yoki u ham yo‘q”, – deydi shoir she’rning birinchi satrida. Qorong‘ulik, zulmat, qaysidir ma’noda qora kunlarni ta’kidlayotgandir. Tashvishli, suronli hayot chig‘iriqlari, hayot girdobi o‘z domiga tortgandir lirik qahramonni. Yoki go‘yo shunday bir vaziyatki, tun (shunday tashvishlar markazidamanki, yonimda hech kim yo‘q) hech kim ko‘rinmayapti, “yoki u ham yo‘q” – balki tun ham meni tashlab ketgandir. Bu satrdagi mazmun siqirligi shundaki, inson qiynalgan, zoriqqan, og‘ir vaziyatga tushganda undan ko‘pchilik yuz o‘giradi, do‘stman deganlar ham qayoqqadir g‘oyib bo‘ladi. Bunday holatlarni hayotda ko‘p marotaba kuzatganmiz, guvohi bo‘lganmiz. Ulkan ma’noni bir satrga sig‘dirish Bektemir Pirnafasovning ijodiy individualligi, shakliy siqirlilik va mazmuniy ko‘lamdorlik uning o‘ziga xosligi. Keyingi satr esa quyidagicha. “Yana yoki ko‘zlarim yumuq”. Lirik qahramonni his qilishga urunib ko‘ramiz. Nima uchun yumuq ko‘zlar? Ular adolatsizliklar-u, ikkiyuzlamachiliklar, nohaqliklar evaziga yumildimi? Yoki oldindan yumuq ediyu, shuning uchun atrofida nima bo‘layotganini ilg‘ay olmadimi? Nima bo‘lganda ham, insoniyat-

ning bir-biriga bo'lgan munosabatidan ta'sirlanib bitilgan bu satrlar!!! Negaki, unda tushkunlik, mahzunlik, umidsizlik va chorasizlik kayfiyatlarining unsurlari seziladi. "Yo sukunat hozir yoki bir jarang" – sukunat va jarang badiiyatning muqoyasasi sifatida obrazli tarzda qabartirilib berilgan satr oldingi satrlarni to'ldirishga va keyingi fikrlarga ko'prik vazifasini bajarishga imkon yaratadi. Nima bo'lganini tushunolmay ikkilanishda turgan lirik qahramonning ahvoli "sukunat va jarang" aro kechuvchi vaqt ichida ko'rsatib berilayotir. "Yana balki, qulog'im garang..." – she'rning so'nggi satrida mantiqiy xulosa bordek bizning nazarimizda. Balki, yu-muq ko'zlarim va garang quloqlar bilan hayotning qaynoqligini mehr va sadoqat tushunchalari borligini ko'rmagandirman va eshitmagan-dirman. Yoki rostdan ham jar solib aytilayotgan yolg'on shiorlardan ko'ra bir lahzalik sukunat afzalmikan degan ikkilanish aro yakun topgan she'rni, aytib o'tganimizdek, ko'pchilik tushunmagan bo'lishi yoki tushunishni istamagan bo'lishi mumkin. Shunday hollarda adabiyotshunos M.Yo'ldoshevaning quyidagi so'zlarini ta'kidlagimiz keladi. **"Modern adabiyotda odamning ichki olami birinchi o'ringa qo'yiladi, asardagi barcha narsa: ramzlar, voqea tasviri, musiqiylik faqat odam ruhiyatini ochishga qaratilishi kerak degan qarash bu yo'nalish**

vakillari tayanadigan bosh tamoyildir. Ijodkorlarning shaxsiy kechinmaga tayanib, uni o'ta shaxsiy yo'sinda ifoda etgani uchun ham modern she'riyat ommaviy bo'la olmaydi, buni u hech qachon da'vo ham qilmaydi".

O'zbek modern she'riyatining o'z o'quvchilari bor. Ha, albatta, ular soni ko'p bo'lmasa-da, bor, lekin modern nima ekanligini tushunmasdan, uni har xil talqin qiluvchilar soni modern muxlislarining sonidan anchagina ko'p. Shuning uchun biz aziz o'quvchilarga, modern she'r muto'laasiga kirishish arafasida turgan kitobxonlarga, avvalo, modern nima, degan savolga javob topishga urinib ko'rishingizni tavsiya qilgan bo'lar edik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahimjon Rahmat. *Adabiyotdan chiqish.* – T.: “Akademnashr”, 2015.

2. Yo'ldosheva M. *Yangilanishlar manguiligi.* – T.: “Adib”, 2011.

3. O'zbek modern she'riyati. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2003.

MODERNCHA TALQINDA BADIYYAT VA USLUB

Bugungi kun o'zbek she'riyatida uslubiy va shakliy rang-baranglik, bir-birini takrorlamaydigan, nafaqat bir-birini, balki, shoir hattoki o'zini ham takrorlamaydigan, ya'ni qoliplashmagan, (qotib qolmagan – A.A.) bir yo'singa tushib qolmagan ijod hosilalari paydo bo'lmoqda. Lekin sinchiklab o'rganilganda shaklan boshqa-boshqa, mazmun jihatidan ham bir-biriga yaqinligi yo'q ramzlardan foydalangan holda yaratilayotgan ijod namunalari o'qib ba'zan hayratimizni yashirolmaymiz. Negaki foydalanilayotgan ramzlar bir xil, lekin ularda inson tasavvuriga birdaniga kelavermaydigan mohiyatning yashiringanini anglab shoirlarimizning poetik mahoratiga tan berasiz. O'zbek modern she'riyatini bugungi kunda o'z ijod namunalari bilan boyitayotgan shoirlarimizdan biri Bektemir Pirnafasovdir. Uning quyidagi she'rini kuzatsak:

*Tun bo'yi izlayman kunduzni...
Xazonlar ta'kidlab yig'laydi.
Mening-da o'tkinchi ekanim.*

Inson umrini tabiat fasllariga qiyos qilishgan:
bahor – yoshlik, yoz – o'rta yosh, kuz – keksalik.

Yuqorida berilgan satrlardan biz inson umrini kun (mazgillar)ga qiyos qilgimiz keladi. Sahar yoki tong – yoshlik, kunduz – oʻrta yosh, tun esa qarilik. Lirik qahramonning izlagan narsasiga oydinlik kiritilgandek: *Tun boʻyi izlayman kunduzni...*

Qarilik, yaʼni tun paytida kunduzga qaytish istagi bor, lekin bu kunduz, takroriy kunduzlardan emas, faqat bir bor yuz beruvchi (yashalguvchi) kunduzdir. Tabiat fasliga qiyoslangan qarilik, bu – kuz. Biz sharhlayotgan qarilik tun. Kuz – xazon fasli. “Xazonlar taʼkidlab yigʻlaydi, mening-da oʻtkinchi ekanim”. Demak, bizning nuroniy lirik qahramonimiz, ayni kuz payti tun chogʻi kunduzni qoʻmsayotir. Yoshlikni sogʻinmagan qariyaning oʻzi boʻlmasa kerak. Anʼanaviylikdan chekingan holda tasvirlangan moʻysafidning orzulari modern sheʼrda shunday talqin topmoqda. Ifoda bogʻlami va izchilligini taʼminlash uchun sheʼr ibtidosida izoh bor. Mantiqiylik va davomiylikni taʼminlash maqsadida gradatsion uslubdan foydalanilgan. Eslatma tarzida berilgan soʻzlar lirik qahramon meni uchun quvonchli hamda sogʻinchli “taʼkidlab yigʻlaydi”, “oʻtkinchi ekanim”, “sogʻinib ketaman”, “sogʻinchim... uzunki”, “unutaman”, “kim borligini”, “izlayman...” Ibtido va intiho yuzlashuvini “izlayman” mantiqiy ifodasida koʻrish mumkin. “Sheʼr tahlil qilish – diqqattalab jarayon. Chunki sheʼrda aynan nima oʻquvchini oʻziga tortgan-

ligini aniqlash, undagi joziba sirini kashf etish zarur. Bu esa oson emas, chunki biror narsaning nega yoqqanligini, ayniqsa, u san'at turlariga doir bo'lsa, izohlash mushkul".

Men esa sog'inib ketaman!

Sog'inchim shu qadar uzunki,

Hatto, unutaman

Uning ortida kim borligini,

Tun bo'yi izlayman.

Xazonlarning ta'kidiga qaramasdan betoqatlanayotgan lirik men (men esa sog'inib ketaman) o'zidan hayratga tushadi (*sog'inchim shu qadar uzunki*) go'yoki bunday holatga umr bo'yi duch kelmaganday. "Tun", "Xazon", "Yig'i", "Sog'inch" va hijron tuyg'ulari lirik qahramonni charchatadi va o'z sog'inchi ortida nima yoki kim borligini unutishga (*Sog'inchim shu qadar uzunki, hatto, unutaman uning ortida kim borligini*) majbur qiladi. Va yana (*Tun bo'yi izlayman...*) hasratini qiladi. Mo'jaz she'rda umr falsafasi, boshlama va tugallamaning parallelligi (*1.Tun bo'yi izlayman kunduzni... 8.Tun bo'yi izlayman*) va kesishmasi, boshlang'ich taassurot va xulosaning umumlashmasidan shu narsa anglashiladiki, musavvirning aniq va tiniq tasviri umrning ko'z ochib-yumguncha o'tishini bir kunlik vaqt misolida ko'rsatadi.

Shoir ijodiga mansub yana bir she'r:

Tun – azonga aylangan kunduz.

Naqadar sevsam-da men uni

Olib qololmayman o'limdan.

Bektemir Pirnafasov ijodini kuzatar ekanmiz, unda tun manzarasining qora va quyuq bo'yoqlarda berilganini ko'rishimiz mumkin. Yana shuni ham aytishimiz mumkinki, shoir "tun"ni boshqa o'zbek modern she'riyati vakillariga qaraganda o'z ijodida ramz, hattoki, obraz darajasigacha olib chiqdi. Umrning o'tkinchi, vaqtning g'animat ekanligini o'z ijodi orqali eslatib turuvchi shoirimiz bu safar ham o'z e'tiqodiga sodiq qolgan holda shunday ta'kidlaydi: "*Tun – azonga aylangan kunduz*" va o'z satrlarida avlodlar zanjirini ko'rsatadi: **tun – azon – kunduz.**

Mashhur shoirimiz M.Yusuf: "Men to'lib, sen so'lib borishingga boq", – deya ta'kidlaganidek, hayot qonuni oldida chorasiz ekanligimizning badiiy ifodasi Bektemir Pirnafasov talqinida: "Naqadar sevsam-da men uni, olib qololmayman o'limdan" tarzida yangraydi. Haqiqatan ham, tun azonga, azon kunduzga, kunduz shomga, shom xuftonga o'z o'rinlarini bo'shatishga majbur va mahkum. Nazarimizda, har bir badiiy asar oq qog'ozga qora qalam bilan chizilgan suratga o'xshaydi. She'riyatda ham deyarli shunday, lekin boshqa turlarga nisbatan olib

qaraganda, lirikada ko'p hollarda lirik qahramon meni, uning ichki kechinmalari, tuyg'ulari chiziladi. Modern she'riyatda to'qson to'qqiz foiz insonning botiniy olami quyuq bo'yoqlar bilan tasvirlanadi, shunchalar quyuq bo'yoqki, hatto, ko'plar she'rdagi nimaning tasviri ekanligini, mohiyatini bilmay qoladilar. Tushunganlar esa suratlarni o'zlari istagan ranglarda ko'rishi mumkin. Modern she'riyatda esa o'quvchining o'ziga havola. Mujmal chizilgandek ko'ringan suratga beo'xshov bo'yoq bo'yash suratni butunlay yaroqsizga chiqarib tashlashi tabiiy. Lekin farosatli bo'yoqchi yoki she'rxon tabiiy ranglardan foydalanib, suratning butunlay boshqa qiyofasini kashf etishi mumkin.

Bugungi kunda moderncha talqinda chizilgan suratlarga, ya'ni modern she'rlarga ranginlik baxsh etadigan bo'yoqchilar kamdek, bizning nazarimizda, modernizmni bema'nilik deb hisoblab, undan nariroq yuruvchilar ham talay. Borlari ham ko'p hollarda o'zi oddiy qora qalamda chizilgan suratni faqatgina qora ranglar bilan bo'yab tomoshabinni (she'rxonni) modern yo'nalishdagi asarlardan ixlosini qoldiradi, faqat salbiy taassurot uyg'otadi. Lekin shuni ham aytib o'tish lozimki, "men modernistman" deb o'zi ham tushunmay, allanimalarni yozib mashhurlikni da'vo qilayotgan baqiroqlar qanchadan-

qancha. Hali o'zining to'g'ri va ravon yo'lini topib olishi qiyin bo'layotgan modern she'riyatimiz haqida turli xil qarashlar va fikrlar qarama-qarshiligi bisyor: "Dengiz ko'piksiz bo'lmaydi. "Yangi o'zbek adabiyotining boshlovchilarimiz" deb da'vo qilayotganlarning ko'pchiligi o'z iste'dodsizligini berkitish uchun Yevropa modernizmini niqob qilayotgani bor gap. "Modernizm" degan so'zni aynan o'shalar ko'p ishlatadi. Bu adabiy oqim haqida yozganlarini o'qib, so'zlarini tinglab ularning modernizmni juda yuzaki tasavvur qilishlarini sezdim, – degan edi adabiyotshunos Rahimjon Rahmat. – Bugungi milliy modern she'riyatimiz hali saragi sarakka, puchagi puchakka chiqib olmagan bo'lsa-da, asl iste'dodlar o'zlarining so'zini aytishga ulgurdi va aytayotir ham. Shuni ham ta'kidlash kerakki, modern she'riyat o'z holicha yaxshi ham, yomon ham bo'lolmaydi. Negaki, modern yo'lida "shedeвр" asarlar yozish mumkin bo'lganidek, g'arib bitiklar ham yuzaga kelishi mumkin. Gap yo'nalishda emas, iste'dodning cho'g'langanlik darajasidadir". Bu chog'langanlik B.Pirnafasov ijodida qay darajada bo'y ko'rsatmoqda? Buni aniqlashga she'rlardan olingan parchalar yordamida urinib ko'rsak.

*Sochlarimning qora rangi tugadi,
Kaftimda qolmadi kelajak izi...*

Bir qarashda insonning nuroniylik, mo'ysafidlik damlarini yodga soluvchi bu satrlarda, aslida, hayot zarbasidan o'ziga kelolmagan inson tasviri bordek bizning nazarimizda. Ko'plab qiyinchiliklar-u mashaqqatlar girdobida qolgan lirik qahramon sochlari tashvishlardan oqargan, sinovlarni yengishga chog'langan qo'llar esa qabargan. Kaftdagi chiziqlar hayot yo'llaridan xabar beruvchi xarita degan gap bor xalq orasida, lekin yuqoridagi satrlarda qabargan qo'llarda kelajak izi yo'qligidan tashvishga tushgan lirik qahramon tasviri beriladi.

B.Pirnafasov moderncha talqin imkoniyatlarini kengaytirishga intilayotgan ijodkorlar sirasiga kiradi. Uning quyidagi she'rida shunday deyiladi:

Sen qarib qolyapsan

Mening imkonsizligimni yuzimga solib,

Mangulik haqidagi barcha she'rlarimni tahqirlab.

Sen qarib qolyapsan tobora...

Onajon...

Imkonsizlik va mangulik aro kechayotgan jayrayonni hech qanday qoliplarsiz she'rga solish biz uchun qandaydir g'alati tuyilishi mumkin, lekin modernning talabi ham shu. B.Pirnafasov ijodini kuzatar ekanmiz, uning o'zbek modern she'riyatida o'ziga xos o'rni, o'ziga xos uslubi va ayricha ifoda yo'sini borligiga amin bo'lamiz.

Buni ijodkorning she'rlarini o'qishga tutingan har bir she'rxon anglab yetishi mumkin. Yaxshi ijod namunasi, ya'ni yaxshi she'r tushunilish va tushunmaslik orasida turuvchi hodisa hisoblanadi. Bir she'rdan o'n xil ma'no, o'n xil mazmun, o'n xil sharh topsangiz, o'n birinchisi uchun imkoniyat ochiq qoladi. Shoir B.Pirnavasovning she'rlari o'n birinchi imkoniyat uchun o'rin ochiq qolgan ijod namunalaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahimjon Rahmat. *Adabiyotdan chiqish.* – T.: “Akademnashr”, 2015.

2. Yo'ldosheva Muhayyo. *Yangilanish manguligi.* – T.: “Adib”, 2011.

3. Pirnafasov Bektemir. *Tong yoqasi.* – T.: “Yozuvchi”, 1996.

4. Internet sayti: www.ziyouz.com

GULLAYOTGAN CHECHAKLAR

Mustaqillik tufayli barcha sohalaridagi keng imkoniyatlar qatorida adabiyot uchun ham yangi sahifalar ochildi. Xususan, mafkuraviy tazyiqlar, zo'rma-zo'rakilik, ijtimoiy-siyosiy qoliplardan xolilik shular jumlasidandir. Ayniqsa, navqiron avlod vakillariga qaratilgan e'tibor alohida ta'kidlashga arzigulik hodisadir. O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi tomonidan tashkil etilgan "Iste'dod maktabi" seminarlari yangidan-yangi nomlarni kashf etishga yaqindan yordam bersa, ijod fondi tomonidan "Birinchi kitobim" loyihasining amalga oshirilishi adabiyot ostonasidagi qalamkashlarni qo'llab-quvvatlashning yorqin bir amaliy ko'rinishidir. Ulug' shoirimiz Erkin Vohidov: "Yosh avlodi bo'lmagan adabiyot go'dak bolasi yo'q oiladek sokin, zerikarli bo'ladi" deganlarida naqadar haq va haqiqat gapni aytgandi. Adabiyotimiz sahniga kirib kelayotgan navqiron avlod vakillaridan bir guruhi Muhammad Yusuf nomidagi Bo'ston akademik litseyi huzurida tashkil etilgan yosh shoir va yozuvchilar seminari ishtirokchilaridir.

Shu ishtirokchilardan Xursandbek Karimov, Hilola Fayzullayeva, Abbos Rahimlarning ijod namunalari "O'zbekiston" nashriyotida "Uch qalb chechaklari" nomi bilan nashr qilingan.

To'plamga kiritilgan she'rlar mutolaasiga kiritish ekansiz, unda hali bolalikning beg'ubor onlarini eslatguvchi, yoshlikning sururli chog'larini yodga soluvchi, hayotga teran nazar bilan qarab falsafiy mushohadaga chorlovchi misralarni o'qib beixtiyor sevinasan kishi. Negaki, hali navnihol bo'lishiga qaramasdan dadil qadamlar bilan she'riyat maydoniga chiqib kelayotgan yoshlar o'z yo'nalishi-yu o'z qalamlariga ega.

Masalan, to'plamning dastlabki sahifalaridan ijod namunalari o'rin olgan Xursandbek Karimov she'rlarida ijtimoiy ruh ustunlik qiladi, buni biz "Sog'lom ona – sog'lom bola", "Otajon ustoz yodi", "Keksalarni e'zozlab yashang", "Nurli yo'lda yoshlaring" kabi she'rlarida kuzatishimiz mumkin. Ona va bola salomatligi davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan bir paytda Xursandbek ham bu mavzuga befarq qaramagan holda shunday yozadi:

Adirlarda chiroy ochsa lolalar,

Quhog'ida kezar quvnoq bolalar,

Fayz-u davlat erur munis onalar,

Sog'lom ona – sog'lom bola bor bo'lgay,

Onalar bor, bizga tole yor bo'lgay.

Umumiy olganda, sharq she'riyatida ayol-qizlar ijodiga alohida hurmat va ehtirom bilan qaraladi. Hilola Fayzullayeva ham o'zbek she'riyatida o'z o'rnini topishga intilayotgan shoirlar-

dan. H.Fayzullayevaning ijod namunalarini o'qir ekansiz, uning o'ziga xoslik sari intilayotganini his qilasz.

Misol tariqasida "Ehtirom" she'rini olaylik, dastlabki misralardanoq o'quvchiga falsafiy bir savol tashlaydi: "Yashamoqning ma'nosi nima?" Bu borada lirik qahramon tilidan biroz muloha-za yuritadi va so'raydi: "Dunyoda eng buyuk zot kimdir?" deya. She'r texnikasini buzmagan holda metin-sabot, sabr-toqat haqidagi fikrlarni ilgari suradi va yana o'quvchini o'ylashga majbur qilgan holda:

*Kim dunyoda hammadan ko'proq
Ehtirom-u e'zozga haqli? –*

deya yana savolga tutadi, she'r ibtidosidan o'quvchi ongida paydo bo'lgan qarash intihoga qadar bir necha bora almashadi, mavhumlashish va oydinlashish aro yuksala boradi va nihoyat miyadagi fikrlarni lirik qahramonning she'r yakunidagi iqrori tasdiqlaydi.

*Muallimga, biling, bir umr
O'quvchimiz biz – oddiy tolib!*

To'plamga kiritilgan yana bir yosh shoir, bu – Abbos Rahim, uning she'rlari qaysidir ma'noda yuki bor she'rlar hisoblanadi. A.Rahimning she'riy mashqlari asosan lirik mazmun kasb eta-

di. "Ishq nolasi", "Tilak", "Olovlar ichra", "Yurak yonganda", "Seni sog'inib...", "Muhabbat formulasi", "Ketding" she'rlarida yorqin namoyon bo'lgan. Ishq azobida o'rtanayotgan lirik qahramon ko'ngil kechinmalarini, ruhiy holatini, o'ylarini obrazli tarzda ifodalab, o'quvchining ko'ngliga kirib boradi va uni o'ylashga, mushohada yuritishga undaydi. Masalan, "Muhabbat formulasi" she'riga e'tibor bering:

Inson tanasida Mendeleyevning

Unsuri ko'p og'ir yoinki yengil.

Kimyogar, ayting-chi, qaysi moddadan

Tashkil topgan o'zi aslida ko'ngil?

Lirik qahramon ko'ngil atalmish mavhumot (yurak emas)ning nima ekanligi haqidagi savoli bilan nafaqat "Kimyogar"ni, balki o'quvchini ham o'yga cho'mdiradi. She'rni shu o'ylar hamrohligida o'qishni davom ettirgan she'rxon bandlar va misralar yakuni qadar chalkash savollar bilan to'qnashadi hamda ularga ko'miladi. "Adabiyot ahli, so'zingiz kerak, Nechun qalb o'g'risi bo'lur yagona". Qarangki, muhabbatdan mastona qalblarda kechuvchi bu kabi yuzlab savollarga javob she'rning yakunida kulminatsiyon nuqtasiga yetadi va savollarga oydinlik kiritiladi. Bu oydinlik qat'iy va tugal emas, sababki o'quvchiga havo-la tarzda, erkin xulosa qilish imkoni bor. She'r

davomida biologiya, kimyo, matematika, fizika, tarix, adabiyot sohasi vakillarini birma-bir so'roqqa tutgan lirik qahramon bu savolga o'zi javob topganday.

*Qoldim aytolmayin bir so'z savolga,
Har yona boqarman, har yona hayron.
Bir qaro qoshni deb o't tushdi tanga
Va o'zim javobin angladim shu on!*

Xulosa qilib aytganda, she'riyatimiz ertasi nuraifshon, yorug' va albatta, shunga umid bor. Buni yuqorida keltirilgan, she'rlari tahlilga tortilgan yosh ijodkorlar misolida ko'rishimiz mumkin. To'plam ham ayni topib nomlangan: "Uch qalb chechaklari", bu chechaklar gullayotgan chechaklardir. Ularning baravj gullashiga, ifori uzoqlarga taralishiga ishonamiz va o'zimizning samimiy tilaklarimizni bildirib qolamiz.

“OG‘ABIY” ROMANIDA TARIXIY HAQIQAT VA MILLIY KOLORIT

Kechamiz bugun, bugunimiz ertaga, ertamiz keyingi kuni6 albatta, tarixga aylanishi izoh talab qilmaydigan aksiomadir. Butun bir millatning o‘tmishi haqida hikoya qiluvchi asar yozmoq insoniyat tarixining bir bo‘lagini yoritmoq bilan barobardir. Shu ma’noda Kengesboy Karimovning “Og‘abiy” romani adabiyotimiz tarixida muhim va e’tiborga molik hodisa bo‘lib muhr-lanib qolishi shubhasiz.

Yaqin tarix haqida ma’lumot beruvchi “Og‘a-biy” romanida qoraqalpoq urug‘larining o‘zaro nizolari tufayli kechib o‘tilgan sarson-u sargardonlik yo‘li va unda kutilmaganda sodir bo‘ladigan talafot-u falokatlar oqibati, hatto o‘linga ham olib keladigan fojiaviy holatlar ustoz adib, publitsist, shoir va yozuvchi Kengesboy Karimov tomonidan mahorat bilan ochib berilgan desak yanglishmagan bo‘lamiz. Shonli tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ko‘zi qora, ko‘ngli toza, yuragi oq deb ta’riflanadigan qoraqalpoq xalqi o‘z boshidan ozmuncha sinovlarni kechirmaganligi ayon bo‘ladi. Birinchi prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov o‘z asarlaridan birida quyidagicha ta’kidlagan edi: “Qoraqalpoq deganda, bu zahmatkash xalqning o‘ziga xos

xususiyatlari, elni el, yurtni yurt qiladigan fazilatlar haqida gapirganda, avvalo, bizning ko'z oldimizda o'zining uzoq tarixi davomida ko'p azob-uqubatlar, qirg'in-qatag'onlarni boshidan kechirgan, qancha-qancha og'ir yo'llarni bosib o'tgan, chidamli va bag'rikeng, mard va matonatli bir xalq siymosi paydo bo'ladi".

Qardosh qoraqalpoq yozma adabiyoti tarixiga nazar soladigan bo'lsak, yildan-yilga yangi adabiy asarlar bilan boyib, mukammallashib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. O'zining tarixiy romanlari bilan jahon adabiyoti xazinasiga nodir durdonalarni tuhfa etgan qoraqalpoq adabiyoti nasri yalovbardori hisoblangan To'lepbergen Qayipbergenovning munosib izdoshi bo'lgan Kengesbay Karimovning "OG'ABIY" romani chinakam ma'noda qoraqalpoqlarning yaqin tarixi (1800-yillar atrofi) haqida xabar beruvchi muhtasham asar sanaladi. P.Shermuhamedov ta'kidlaganidek, "Tarixiy mavzuga murojaat qilishning murakkab tomonlari ko'p. Yozuvchi qalamga olgan davrni chuqur o'rganishi, tarixiy haqiqatga to'la rioya qilishi zarur". Bemalol aytishimiz mumkinki, roman muallifi yuqoridagi talablarga to'la rioya qilgan. Bu asarning birinchi qismi "Sharq yulduzi" jurnalining 2017-yil 1-2-3-sonlarida qoraqalpoq tilidan Rustam Musurmon tarjimasi bilan e'lon qilingan.

Yozuvchi tarixiy voqealarni bo'yab-bejamasdan tasvirlab, qoraqalpoqlarning o'z urug'lari orasida ichki nizolar, urug'-urug', qabila-qabila bo'lib boshboshdoq yashash, o'zaro nifoqlar millat istiqboli uchun emas, uning tanazzuli, inqirozi uchun xizmat qilishini asarning matn-osti strukturasi va mazmuniy qatiga singdirib yuboradi hamda bu haqiqatni teran fikrlaydigan o'quvchi anglashi uchun qahramonlar hayotida sodir bo'lgan voqealar orqali ko'rsatib berishga harakat qiladi. "O'tmishni quruq qayd qilish emas, balki yuksak badiiy mahorat vositasida voqealarni hayajonli kartinalarga, tarixiy shaxslarni jonli badiiy tip darajasiga ko'tarish, romanda bir butun davr qiyofasini, davr tipini yaratishga erishiladi. Shuning uchun ham tarixiy romanda tarix haqiqati badiiy haqiqat darajasiga o'sib chiqishi lozimligi asosiy shartlardan biri sanaladi".

Romanda voqealar rivojiga turtki beruvchi, qahramonlarni harakatga keltiruvchi jiddiy konflikt tashqi ta'sir natijasida bo'lmay, balki o'zaro kelishmovchilik yuzasidan kelib chiqadi. Roman voqealari bayon qilinishi va obrazlar talqiniga ko'ra an'anaviy usuldaligini ko'rishimiz mumkin. Asar mutolaasiga kirishgan har bir o'quvchi, adib faqat voqeabandlikka emas, ijtimoiy-ma'naviy muammolarni ko'tarish, ularni obrazlar vositasida o'quvchilar ongiga singdi-

rish, ajdodlar aql-u zakosidan ibrat, xatosidan xulosa chiqarishga undayotganligini his qiladi. Adib tarixiy haqiqatni buzmasdan badiiy asarga ko'chirgan – ajdodlar bosib o'tgan og'ir va sinovli hayot yo'llarida kechgan voqealarni romanning janriy talablariga mos ravishda joylashtirgan. Masalan: "Azaldan Turkistonda yashayotgan qolin qoraqalpoqni jung'orlar chopib, "otangni yov chopsa, qo'shilib chop" deganlariday, jung'orlardan so'ng ko'p o'tmay qozoq xonlarining siquvi bilan qoraqalpoqlarning bir bo'lagi Sirdaryo yoqalab Toshkent, Farg'ona, undan o'tib Samarqand bilan Buxoroni panoq qilgan bo'lsa, bir guruhi bobolarining eski yurti Amudaryoning quyilishi, Orol yoqasiga ko'chib kelgan deyishadi"; yoki: "Biyning Qumtepa ustiga tikilgan uyini xizmatkorlar yig'ib, tuyaga ortgan, Qulchi otboqari Bo'tabekning ot keltirishini kutib, balandda turar edi. Ko'chga nazar tashladi. Ko'chish ota-bobosidan qolgan. Olti elat qoraqalpoqning peshonasiga ko'chib-qo'nib yurish yozilganmikin? O'zi biladigan xitoy bilan qipchoq Qo'qon va Buxoro orasida, kenagas bilan mang'itlar Buxoro va Xorazm o'rtasida joylashib, ko'chib-qo'nadi. Amirning buyrug'i bilan Sir bo'yida joylashgan qoraqalpoqlar oldiga bordi. Ularda ham ahvol shu. Yozda suv bo'yiga ko'chsa, qishda qishlovga qaytadi. O'troqlashib, dehqonchilik qilishga bo'yinlari yor bermay-

di. Amudaryoning oyog'idagilar Xivaga fuqaro bo'lib, Chimboy, Qo'ng'iro't, Davqora atroflarida dehqonchilik qilishadi, daryoning quyilishidagi ko'llar va dengiz yoqalaganlari baliq va ov ovlab, mol boqadi, deb eshitgan" kabi asar qatiga singdirilgan tarixiy voqealarning teran tahlili bunga yaqqol misol bo'la oladi. Asarni o'qish jarayonida muallifning tarix ilmidan, (asarning asosiy voqealari tarixiy manbalar bilan hamohangligi) diniy bilimlardan (voqea yuz berayotgan vaqtning qachonligini bildirish uchun namoz vaqtlari va unda o'qiladigan sura va oyatlarining nomlanishi hamda tartibining keltirilishi, musulmonlar uchun qat'iy qoidalarga aylangan amallarning ba'zi qahramonlar harakati orqali ko'rsatib berilishi ("Astag'firullo, astag'firullo" deb yoqa ushlashdan, halollangan sovliqlarni sanashdan boshqa chorasi qolmadi"; "bismillo"sini aytib quyonni bo'g'izladi..."), hayvonot (asardagi otlarning ta'rifi va tasnifi, tuyalar haqidagi ayrim fikrlar, bo'rilarining turmush tarzi haqidagi qatorlar shular jumlasidan. "Erepboy peshonasiga bitgan buyrul o'tni minib, yemishni olib ketaverar edi. Minishga yaxshi, g'ayratli buyrulning poygada chopadigan tezligi yo'q, uloqqa yaraydigan chidami bor...") va nabotot (tuyaqorin, yavshan, saksovol kabi bir qancha o'simliklar haqida keltirilgan ba'zi ma'lumotlar), xalq tabobati sirlaridan (qahramonlar tilidan

xastaliklar uchun tabiiy shifo bo'luvchi usullar va unsurlarning aytib o'tilishi), geografik bilimlardan (tabiat fasllari va uning injiqliklaridan himoyalaniş bobida qahramonlarning ustomon xatti-harakatlari), astronomiya ilmidan (yulduzlarga qarab yo'l aniqlash va vaqtni chamalash) xabardor ekanini ko'rish mumkin va bularning har birini personajlarning roman miqyosida tutgan o'rniga qarab "yedirib" yuborishining o'zi ham adibning uslubiy o'ziga xosligini ta'minlovchi omil hisoblanadi.

Shu o'rinda adib muallif tilidan hamda personajlar nutqi orqali quyuq, qayta va qayta keltirilib o'tayotgan maqollari, hikmatli so'zlari, urfodat hamda an'analarga to'xtalib o'tishi qoraqalpoq xalqiga xos bo'lgan milliy koloritni o'ziga xos tarzda ko'rsatib bera olgan. Masalan, asardan olingan quyidagi parchada muallif tilidan asrlar mobaynida qoraqalpoqlar uchun tabiiy bir odatga aylangan ko'rinish yoritib berilgan:

“– Kische, go'sht pishdimi? – dedi cho'ntagidan tuzoqlarni yerga tashlab, bir-biridan ajratar ekan.

– Turdingmi, Oqjigit? – dedi savol bilan javob qaytarib ayol.

Uzun bo'yli, oq-sariqdan kelgan, ko'k ko'zlari mehr bilan boqqan kelinchak Qayirning tuqqan onasi, bola esa kelinchakning tilab olgan yolg'izi edi. Qoraqalpoqlarda ilgaridan kelayotgan odat

bo'yicha esini taniguncha onasi o'z bolasining otini aytmay "Oqjigit" deydi, bolasi esa o'z navbatida onasini "kiske" deya chaqiradi". Qahramonlar dialogidan anglashilgan qisqacha matn mazmunidan ham va undan keyin kelgan muallif ma'lumotidan ham anglashilishicha, ona va bolaning bir-biriga murojaati boshqa xalqlarnikiga qaraganda o'zgacha. Muallif bergan ma'lumotdan olingan parchaga e'tibor qarataylik: "qoraqalpoqlarda ilgaridan kelayotgan odat bo'yicha..." deya ta'kidlanishi tufayli tarix qatiga nazar tashlanib bitilayotgan asarda bu ko'rinishdagi holat o'sha vaqtlardagidan ham oldin bo'lganligi haqida tushuncha berilgandek, nazarimizda. Dialog orqali butun millatga xos bo'lgan an'anani ko'rsatish bilan bir qatorda qahramonlarning ruhiy holatiga ham urg'u berilgan, ya'ni onaning bolaga mehri "qahramonning qiyofasi, mohiyati, ichki dunyosi dialoglarda ko'zga tashlanadi. Mahorat bilan bitilgan dialogni chaqmoqqa qiyoslash mumkin: u bilan bir zumda qahramonning borlig'i, individual qiyofasi yoritiladi".

Qolaversa, adib millat o'ziga xosligini ko'rsatish uchun faqatgina dialoglardan foydalanib yoki ular haqida alohida to'xtalmasdan, milliy qiyofani tasvirlar qatiga singdirib yuborgan. Masalan, asar qahramoni Erejebning yoshi ulg'ayib qolganligini uning qiyofasini ta'rif-tavsiflash orqali ham ko'rsatib o'tgan. "Erejeb ham

xivich otni tashlab, sunnat to'y bilan haydar kokil to'yini to'ylab bo'lgan, otasi Qulchiga o'xshab bo'ychan bo'layotganidan darak berib, oq-sariq yuziga ko'k ko'zlari yarashib, ovul so'qmoqlarini changitib chopadigan bola edi". Sunnat qilish butun musulmon olamida o'g'il bolalar uchun sunnat bo'lgan amal hisoblanadi. Haydar kokil to'yi esa qoraqalpoqlarning odati bo'lib, o'g'il farzand dunyoga kelganidan boshlab to 6-7-yoshlarga yetguncha boshning markaziy qismidagi sochlarga tig' tekkizmasdan o'stirib qo'yish hamda vaqti kelganda odatlarga binoan uni qirqishda o'tkaziladigan tantanali marosim. Bundan tashqari, asarda aza marosimi ko'rinishi ham ta'sirli va jonli tarzda keltirib o'tiladi. "Jurinboy yig'lashdan to'xtab, serrayib qoldi. So'ng otam zamondan kelayotgan qoraqalpoqlarning udumiga amal qilib, yerga ikki bukilib "voy-voy" deb tovush chiqarib, qora uyga qarab yuraverdi. Bektemirning ko'kragida bitib ketgan yaraning o'rni "chim" etib sanchdi. Gandiraklab ketdi.

Yiqilmadi. Jurin qora uyga kirib "voy-voy" deb dod solar, "onamizdan ayrilib qoldik, jo'rajon" deya yo'qlov aytib, yer tepinib yig'lar edi". Erkaklarning ham o'z hamdardligini so'z orqali ifoda etishi ichidagi o'kinch, o'rtanish, yo'qotish va judolikni shu "voy-voy"lar bilan chiqarishga harakat qilishi, azadorlarga hamdard ekanligini

bildirishini namoyon etuvchi bu an'ana asarda qisqa va aniq tasvirlangan. Yuqorida ta'kidlaganimiz – milliy kolorit bilan bog'liq bo'lgan urf-odat, an'ana, marosim ko'rinishlaridan tashqari, "Og'abiy" romanida taomlanish, dasturxon boshidagi o'ziga xosliklar, sarqit berish, izn olish, safar chog'idagi an'analar, mehmondorchilik urf-odatlari kabi qoraqalpoq xalqi uchun xos bo'lgan udumlar voqealar jarayoni bilan parallel ravishda ko'rsatib o'tilgan.

Muallif qahramonlar ruhiyatini ochib berish bilan birgalikda, qoraqalpoq xalqining boy og'zaki ijodga ega ekanligini ham ko'rsatib o'tgan. Asarning birinchi qismidayoq ishlatilgan 100 ga yaqin maqol, 50 dan ziyod o'xshatishlar xalq dostonlarida keng uchraydigan saj san'atining qo'llanilishi va aynan xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lgan dostonlarning nomi, qahramonlarining jasorati haqidagi quyidagi parchalar yaqqol misol bo'la oladi. "Alpomishning Boychibori bilan Qoblanning To'richasini tildan qo'ymay, shunday tulpori, keskir qilichi, Ozuvli bilan Qorajonni yiqitgudek zo'r bo'lishni orzu qiladiganlardan biri mana shu Jurinboy edi".

"– Ikkimiz Barchinni qanday bo'lishamiz? Barchin birov, biz ikki do'stmiz-ku, – dedi bir kuni Hakimqul.

Chindan ham qiziq edi-da. To'ylarda kechqurun jirovlar jirlaydigan dostonlarda "Alpo-

mish", "Qoblan", "Go'ro'g'li" da suluvlar eng botir pahlavonga tegishgan. Bular esa ikkov-ku".

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Kengesboy Karimovning "Og'abiy" romani ravon o'qiladi va ayni paytda kitobxonni o'ylashga, mushohada yuritishga chorlaydi, xayollarini moziy tomon safarga yuborishga undaydi. O'quvchi asar mutolaasi jarayonida badiiy asar zavqi bilan birgalikda qoraqalpoq xalqining olis va og'ir kechmishi haqida, o'tmish zamonlarda olib borilgan siyosat haqida, qilichdek o'tkir so'z o'yinlari-yu qochirimlari haqida, boy urf-odat-u an'analari haqida atroflicha ma'lumot beruvchi manba ekanligiga amin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. *Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq.* 12-jild. – T.: "O'zbekiston", 2004.

2. *XX asr adabiyotshunosligi o'zbek adabiy tanqidi antologiyasi.* – T.: "Turon Iqbol", 2011.

3. Rasulov A. *Badiiylik bezavol yangilik.* – T.: "Sharq", 2007.

4. Sharq yulduzi // 2017-yil, 1-2-3-son.

O'ZBEK NASRIDA ABU RAYHON BERUNIY OBRAZINING YORITILISHI

O'zbek xalqi o'zining boy va qadimiy tarixi bilan hamisha faxrlanib kelgan. Buyuk bobokalonlarimiz, mard va jasur sarkardalarimiz, alloma ajdodlarimiz, qomusiy olimlarimiz o'zlarining faoliyati bilan nafaqat o'zbek xalqining, balki butun dunyoning hayrat-u tahsinlariga sazovor bo'lgan. Bundan ming yillar oldin yashab ijod etgan, samarali faoliyat olib borgan va dunyo ilm-fani, madaniyati, ma'naviyati, tarixida o'zlarining o'chmas izlarini qoldirgan ko'plab olimlarimiz, sarkarda-yu avliyo zotlarimiz talaygina. Bular sirasiga Al-Buxoriy, Termiziy, Naqshbandiy, Al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar kiradi, sanoqni uzoq davom ettirish mumkin. Bugungi kunga qadar yuqorida nomlari zikr etilgan ulug' zotlarning faoliyati ilmiy nuqtayi nazardan samarali tadqiq etilgan va etilmoqda. Ularning hayot yo'llari, olib borgan faoliyati, hayotida yuz bergan ijtimoiy ziddiyatlari ishonchli tarixiy manbalar orqali o'rganilib, bugungi kun o'quvchilariga bor bo'y-basti va asl qiyofasi bilan namoyon etilmoqda. Shu o'rin-da tabiiy bir savol tug'iladi, xo'sh milliy adabi-

yotimizda buyuk ajdodlarimiz, mutafakkir olimlar qanday akslantirilmoqda, qaysi ijodkorlar o'z asarlarida tarixiy voqelikka tarixiy shaxslarning hayotiga murojaat qildi? Ushbu maqolamiz doirasida yuqoridagi savolga imkon qadar javob topishga harakat qilamiz. Maqolamiz ulug' alloma, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy obraziining umumiy tahlillariga bag'ishlanadi. O'zbek adabiyotida qaysi ijodkorlar, qanday janrlarda alloma obrazini adabiyotimizga olib kirdi? Bular sirasiga quyidagi epik turning qissa hamda roman janrlaridagi Mirkarim Osimning "Jayhun ustidagi bulutlar", Pirmat Shermuhamedovning "Dahoning tug'ilishi yoxud Abu Rayhon Beruniy qismati" qissalari. Odil Yoqubovning "Ko'hna dunyo", Qurbon Muhammadrizovning "Omonat tuhfa", "Sinov sahnasi" kabi romanlarini kiritishimiz mumkin. Aynan Beruniy obrazi bosh qahramon sifatida olinmagan bo'lsa ham, Maq-sud Qoriyevning "Ibn Sino" va "G'aznaviylar" romanlaridagi ma'lum boblarda allomaning botiniy va zohiriy olami qisqa va yorqin ko'rinishlarda namoyon bo'lgan.

Epik turning qissa janrida bitilgan Mirkarim Osimning "Jayhun ustida bulutlar" hamda Pirmat Shermuhamedovning "Dahoning tug'ilishi yoxud Abu Rayhon Beruniy qismati" asarlarida alloma hayoti xronologik tarzda berilganligi va tarixiy ma'lumotlar badiiy bo'yoqlar bilan

qorishiq shaklda keltirilishi o'quvchi uchun qiziqarli hisoblanadi. Qissalarning yozilishida juz'iy o'xshashliklar hamda tubdan farq qiluvchi jihatlar kuzatiladi. Dastlab o'xshashliklar haqida to'xtalib o'tsak, buning sababi, bizningcha, bu asarlarning bir xil janrda yozilishi, bir tarixiy davr, bir tarixiy shaxs hayotiga murojaat qilinishidadir. "Jayhun ustida bulutlar"da badiiyat yuki bosim kelsa, unga tarixiy manbalar orqali yetib kelgan ma'lumotlarning qo'shili-shi zeb berib turadi. "Dahoning tug'ilishi..."da esa aksincha, qahramonlar harakati tarixiy faktlarni ko'rsatib berish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, daho haqida ishonchli manbalar orqali bizgacha yetib kelgan faktlar iqtiboslar tarzida berilishi yozuvchining ilmiylikka chuqurroq kirishib ketganligini ko'rsatadi. Lekin bu chuqurlashish sababini asar boshidagi "ilmiy-ma'rifiy qissa" atamasi bilan izohlashimiz mumkin. Adabiyotshunosligimizda adabiy asarda badiiylilik birinchi o'rinda turishi kerak degan tushuncha mavjud, bu fikr to'g'ri aytilgan, albat-ta. Badiiylilik va ilmiylikning qorishiq shakli bundan ming yil oldingi tarixni va Abu Rayhon Beruniyning olimlik qiyofasini yoritishda muayyan ma'noda o'ziga xos yo'ldan borilgan holda yozilgan. "Jayhun ustida bulutlar" qissasi hajm jihatdan "Dahoning tug'ilishi..."dan kichik, shu bilan birgalikda voqealar qamrovi jihatidan ham

torroq desak, yanglishmaymiz. Qissada alloma-ning ilmiy faoliyatiga, kashfiyotlariga doir jami sakkizta o'rin mavjud. Bu o'rinlarda yozuvchi qahramonning yoshi, o'rganayotgan obyekti, voqeaning sodir bo'layotgan o'rni va vaqtiga qarab asar bo'ylab sohib chiqqan. Yozuvchi Beruniy tomonidan bajariladigan faoliyatga, kashfiyotlariga o'quvchi ishonishi uchun zamin tayyorlab boradi. Yanada aniqrog'i, olim yashagan davr nuqtayi nazaridan olib qaraganda, uning aqlni lol qoldiradigan kashfiyotlari ishonarli tarzda beriladi. Alloma bolaligidan o'ta qiziquvchan, sinchkov va tirishqoq ekanligiga adib asarning ikki o'rnida urg'u berib ketadi. Bulardan biri – bola Muhammad cho'l-u biyobonga saksovul terish uchun borganda ham, bolalar bilan o'ynash uchun qir-u adirlarga chiqqanda ham, turli xil o't-o'lanlarni yig'ib kelishi, bu hodisa alloma hayotida haqiqatan ham ro'y bergani, shaharga ko'chib kelgan bir yunondan o't-o'lanlarning yunonchada va boshqa tillardagi nomlarining qandayligini so'rab bilib olgani bizgacha yetib kelgan ishonchli manbalardan ma'lum. Bu sa'y-harakatlar natijasida keyinchalik "Saydana" asari dunyoga kelgan. Qissadagi ikkinchi urg'u esa olimning yod olish qobiliyati bilan bog'liq. Bolaligidan xotirasi yaxshi bo'lgan Muhammad bu qobiliyati bilan ustozlarini shoshirib qo'yadi. "U ustozni ibn Iroqqa hozirgina o'qigan kito-

binig bir bobini yoddan aytib beradi". Qissada Abu Rayhon Beruniyning ilmiy faoliyatiga qisqa-qisqa ko'rinishlarda to'xtab o'tiladi. Lekin bu to'xtalishlar quruq bayon emas, sodir bo'layotgan voqelik zanjirining bir halqasi sifatida bo'y ko'rsatadi. Yuqorida ta'kidlaganimiz – ikki holat o'quvchiga olimning keyingi kashfiyotlari uchun hozirlik ko'rayotganiga shahodatlik qiladi. Shiddatli tus olgan voqealar fonida katta bo'layotgan Muhammad yigirma bir yoshida yer shaklini yasaydi va unga mohirona ishlov beradi. Olimning bolalik chog'laridagi kuzatish va izlanishlarini yuqorida aytilgan ikki ko'rinish bilan urg'ulagan adib qissa imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qahramonning keyingi izlanishlari haqida to'xtalib o'tadi. Bular quyidagilardir: 1) globusni yasashi; 2) quyosh borasidagi tadqiqotlari; 3) oftob davrasining eng baland cho'qqisini aniqlashdagi izlanishlari; 4) g'am-anduhlarini og'ir mehnat, mutolaa va ilmiy mashg'ulot bilan yengishi; 5) Oy tutilishi kunini aniqlashi va uni kuzatishi; 6) javohirlarning turlari va xosiyatlarini aniqlashga kirishishi.

Bundan tashqari, ilm-u urfon haqidagi bahosi tengsiz bo'lgan asarlar-u kitoblar borasidagi suhbatlar maromida qo'llangan. Lekin "Beruniy obrazini yaratishda adib muayyan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritgan bo'lsa-da, uning xarakteridagi dinamikani birday harakatda bera olmaydi. Yoki

keltirilgan manzara, parcha kishilar obrazi Beruniy xarakteri rivojiga xizmat qilavermaydi". Qissada qahramonning olimligini ochib beruvchi yuqorida sanab o'tilgan ta'kidlardan tashqari yana ikki voqea keltiriladiki, bular izlanishlar, tadqiqotlar bilan javobi topiladigan jumboqlar emas. Allomaning uddaburonlik, hozirjavoblik, so'zga chechanlik, vaziyatni tezda anglash va fahm-farosat bilan murakkab holatlardan chiqib ketishga iqtidorli ekanini namoyon qiladi. Ikkala ko'rinish qissaning yakuniy qismlarida bo'y ko'rsatadi. Bu voqealarning ikkisi ham G'aznaviy bilan bog'liq bo'lib, bunda yozuvchi Beruniy boboning yuksak aql-idrok sohibi ekanligini ko'rsatib berishi bilan birga, davr qahramonlari sulton Mahmud G'aznaviy va din peshvolarining o'ta mutaassib ekanligini ham ochib beradi. Birinchi voqeada qutb tomondan kelgan bir vakilning ular tarafda olti oy quyosh chiqib turishi-yu, olti oy chiqmasligi borasidagi gapiga shubha qilgan sulton uni kazzoblikda ayblab zindonga tashlaydi, qatl qilmoqchi bo'ladi. Alloma bir begunohning joni omon qolsin deb uning aytganlarini ilmiy asoslaydi, lekin sulton tushunmaydi. Shunda u taraflarda musulmonlar yo'q, shu sababli qish faslida xudo ulardan quyosh jamolini yashiradi, degan javobidan qoniqadi sulton.

Ikkinchi voqea esa har xil shakllarda og'izdan og'izga, asardan asarga ko'chib yurgan Sulton

Mahmudning allomani sinash uchun sakkiz eshikli salomxonaning qaysi eshigidan chiqib ketishimni top, deyishidir. O'quvchini yechim sari shoshishga undovchi bu voqealar asarning kulminatsion nuqtasidek tuyuladi. O'tgan asrning ikkinchi yarmida yozilgan bu qissa qiziqarli va o'qishli bo'lib, u haqda turli xil fikrlar, munosabatlar bildirilgan. Shulardan birini misol tariqasida keltirsak: tadqiqotchi Ko'bayev: "Qissada Beruniyning ilm olish yo'lida chekkan zahmatlari tasvirida M.Osim ijodkordan ko'ra tarixchi sifatida namoyon bo'lgan, shu tufayli asarda umumiy qaydlar keragidan ortiq beriladi", – deya ta'kidlaydi. Bu fikr biroz bahsliday, nazarimizda. Negaki badiiyat yuki "Dahoning tug'ilishi..." qissasiga nisbatan salmoqli ekanligini ta'kidlab turgan bir pallada umumiy qaydlar deya "ayb" qo'yilishi bizni ikkilanishga olib keldi. Aslida "Jayhun ustida bulutlar" qissasi haqida aytilayotgan bu fikrlar haqiqatan uzoq ekanligini "Dahoning tug'ilishi..." qissasi bilan muqoyasa qilgan holda isbotlashga harakat qilamiz. Har ikkala adib ham o'z asarlarini yozishda goh tarixchi, goh yozuvchi, goh olim nigohi bilan o'tmishga nazar solganligi ko'rinib turibdi. "Dahoning tug'ilishi..." o'n uch qismdan iborat bo'lib, har bir qism sarlavhasidan so'ng qismning butun mohiyatini ochib bera oladi-

gan aynan mavzuga monand bir yoki bir nechta epigraf tanlangan. Bayon qilinayotgan voqealar o'quvchiga ishonarli bo'lishi uchun aniq tarixiy faktlar iqtibos tarzida keltiriladi. Iqtiboslar ba'zan sahifaning uchdan ikki qismini egallaydi. Lekin quruq faktlar, raqamlar va qaydlar o'quvchini zeriktirib qo'yishi tabiiy, buni inobatga olgan yozuvchi alloma hayotiga doir mo'tabar manbalar orqali bizgacha yetib kelgan qiziqarli ma'lumotlar, afsonalar, rivoyatlarni qissa zamariga singdirib yuboradiki, bu holat o'quvchini asardan bezdirmaydi. "Jayhun ustida bulutlar" hajmi "Dahoning tug'ilishi..."ga nisbatan kichik ekanligini ta'kidlab o'tgan edik. Buning bir nechta sabablari bor:

- M.Osim voqelikni ixcham bayon qilgan;
- qahramonlarning ichki monologlaridan va dialoglardan kam foydalangan;
- allomaning shaxsiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan jihatlarini kam urg'ulagan;
- hayotining so'nggiga qadar bo'lgan voqealar aks ettirilmagan.

P. Shermuhamedovning "Dahoning tug'ilishi..." qissasida undan farqli o'laroq:

- voqelik batafsil bayon qilingan;
- epigraf va iqtiboslarga keng o'rin ajratgan;
- alloma asarlarining yozilish tarixi, jarayoni, undan parchalar keltirib o'tgan;

– tarixdan ma'lum Ibn Sino bilan savol-javoblarining bizgacha yetib kelgan qismlari aynan keltirilgan;

– tarixiy shaxs obrazini to'laqonli ochib berishga harakat qilgan holda ichki monologlardan foydalanilgan;

– Abu Rayhon Beruniy qalamiga mansub she'rlar aynan keltirilgan;

– Beruniyning insoniylik qiyofasini namoyon qilishda to'qima obrazlardan unumli foydalanilgan.

Qisqa taqqosdan ma'lum bo'lyaptiki, "Jayhun ustidagi bulutlar" qissasi badiiylik bobida ma'romida bitilgan ixcham asar. "Dahoning tug'ili-shi..." qissaning yana bir o'ziga xos jihati shundaki, "Nisbiylik nazariyasi: Beruniy va Eynshteyn" deya nomlangan bobda olim Abu Rayhon Beruniy obrazini ochish uchun ayni zamonimizdan uzoq moziyga nigoh tashlanadi va Beruniy bobo qilgan kashfiyotlar yoki tamal toshini qo'ygan sohalar hamda ularning ba'zi tarmoqlari Yevropa olimlari tomonidan kashf qilingan, asos solingan, yaratilgan deya kelinishiga va fan tarixiga nazar solinganda Beruniy aqalli eslab ham o'tilmasligini achchiq haqiqat deya ta'kidlaydi. Boshqa boblarda ham o'rni-o'rni bilan muallif tilidan yuqorida ta'kidlaganimiz kabi izohlar, sharhlar keltirib o'tiladi. Aytilganlardan ko'rinadiki, "Da-

honing tug'ilishi..." ilmiyikka asoslangan holda alloma obrazini ochuvchi asar hisoblanadi.

O'zbek adabiyotida shonli tariximizdan hikoya qiluvchi muhtasham badiiy bitiklar borki, ularning mutolaasiga kirishish orqali kitobxon adabiyot oynasidan olis tariximizga, buyuk ajdodlarimizning hayoti va faoliyatlariga nazar tashlaydi. Odil Yoqubovning "Ko'hna dunyo" romani ming yil oldingi tariximizni, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy ahvolini, buyuk bobokalonlarimiz Abu Rayhon Beruniyning g'oyat murakkab hayotini ko'rsatuvchi ko'zgudir. Romanda Abu Rayhon Beruniyning nisbatan keksalik davri va shuning bilan birgalikda tarixiy shaxslar Abu Ali ibn Sino, Mahmud G'aznaviy obrazlari gavdalan-tiriladi. Abu Rayhon Beruniy obrazi Ibn Sino va Mahmud G'aznaviy kabi bosh qahramonlarning biri sifatida berilgan bo'lsa ham, o'quvchida al-lomaning turli xil ziddiyatlarga boy hayot yo'li haqida muayyan tasavvur hosil qilish uchun qolgan qahramonlarga badiiy yuk yuklanganini sezamiz. Masalan: G'aznaviyga tutqun bo'lishi, hamisha uning amr-u farmoniga qulluq qilishi, ilmiy-ijodiy ishlari uchun doimo shohdan izn kutishi kabi murakkab jarayonlarni to'laqonli tasavvur qilish uchun Mahmud G'aznaviy obrazi qatnashishi shart edi. Ibn Sino obrazining ham bosh qahramon darajasiga olib chiqilishiga bir

nechta sabablar mavjud. Bular sirasiga, ulug' zotlarning bir davrda yashaganligi; o'zaro do'stlik aloqalarining mavjudligi; qaysidir ma'noda taqdirlarining o'xshashligi kiradi. Romanning 26-bobida ikki buyuk zot Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino uchrashuvi, suhbatlari akslantirilganki, shu orqali ularning olimona madaniyati, do'stona munosabatlari, insoniylik fazilatlarini chuqurroq ochilgan. Romanning ilk boblaridanoq o'quvchi bu ikki ulug' zotning uchrashuvini kutadi, shu vaqtga yetib kelgunicha oshiqadi. Bu oshiqish bekor emas, albat, bularning ilk uchrashuvlaridan to hozirgi ko'rishishlari vaqtigacha bo'lgan oralig'idagi o'quvchi uchun qorong'i bo'lgan voqea-hodisalar ularning suhbatlari asnosida ochiladi. Musofirlik hayoti, ilm-u urfon olamida olib borgan sa'y-harakatlari, yozgan kitoblari, qilgan ishlari, xalq orasida ular bilan bog'liq bo'lgan gap-so'zlar ham suhbat asnosida bo'y ko'rsatadi. Roman yigirma to'qqiz bobdan iborat, shulardan o'n to'rt bobida Abu Rayhon Beruniy hayoti, faoliyati, ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlari yoritilgan va ochishga xizmat qilingan. Odil Yoqubov Beruniy obrazini rahmdil va mehribon, oqil ustoz va sodiq do'st, adl-u insof borasida benazir inson, yetuk olim, xususan, hindshunos sifatida talqin qiladi. Ma'lumki, Mahmud G'aznaviy Hindistonga yurishi chog'ida Abu Rayhon Beruniyni o'ziga

hamroh qilib olib ketadi. Lekin romanda bunday tafsilotlar batafsil yoritilmaydi, qahramonlar xotiralari orqali G'aznaviyning Hindistonga yurishi-yu, u yerda Beruniyning olib borgan izlanishlari, ilmiy-amaliy faoliyati qisqa-qisqa tarzda tasvirlanadi. Sulton va hindlar o'rtasida tarjimonlik qilgan Beruniy ko'pincha ruhiy jihatdan qiynaladi. "O'limga mahkum etilgan ellik ming mahbusning barobar tiz cho'kib aytgan va go'yo mungli qo'shiqday yangragan bu ibodati hanuz qulog'i ostida turibdi, eslasa, hanuz larzaga soladi uni, go'yo bu beshafqat qirg'in sulton Mahmud G'aznaviyning amri bilan emas, uning amri bilan bo'lganday, a'zoyi badani qaqshab ketadi. Uni Hindistonda qolishga da'vat qilgan narsa ham mana shu gunohkorlik tuyg'usi bo'ldi. Hindlar yurtiga jindak xizmat qilib bo'lsa ham, ko'nglidagi bu g'uborni yuvish bo'ldi". Tarixdan ma'lumki, Beruniy o'n uch yil mobaynida Hindistonda bo'lgan, hind xalqining tilini, adabiyotini, madaniyatini, tarixini, urf-odatlarini, etnografiyasini, dinini mukammal o'rgangan. U qisqa vaqt ichida sanskrit tilini ham o'rganib olgan. "Beruniyni Hindiston madaniyati qiziqtirardi. Beruniy uchun tamoman yangi hisoblangan bu sohani bilish o'z davri ijtimoiy masalalarini tushunib yetishni anglatar edi. Shuning uchun, undan sanskrit tilida yozilgan hind faylasuflari va olimlarining asarlari ustida uzluksiz ishlash

va mutolaa qilish og'ir mehnatni talab etgan. Sanskrit tilidagi asosiy manbalar "Mahabharata", "Bhagavathita", Kapilaning "Sankhya"si, Patanjalaning "Yogasutra" asari va boshqalarni chuqur o'rgangan". 1030-yilda hind diyori bilan bog'liq bo'lgan "Tahqiq mo li-l Hind min ma'qula fi-l-aql av marzula" yoki "Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi"ni yozib tugatadi. Bu asar ko'pincha "Hindiston" deb ham yuritiladi. Yozuvchi Odil Yoqubov bu asar bilan yaqindan tanishib chiqqanligini G'aznaviy, Beruniy va Hindiston uchligini hind diyori voqealarida kesishtirganini ko'rib, bunga amin bo'lishimiz mumkin. Alloma tomonidan yaratilgan bunday muhtasham asarni butun dunyo olimlari e'tirof etgan. Xususan, P.G. Bulgakov shunday ta'kidlaydi: "Ming yillik taraqqiyot bizni Beruniydan ajratib tursa-da, bizdan ulug'likni talab qilmaydi, balki butun o'rta asr musulmon adabiyotidagi o'xshashi bo'lmagan asari bilan uning ulug'vorligi oshadi". Bu asar sakson bobdan iborat. 1965-yilda o'zbek tilida nashr etilgan. O. Yoqubov tarixan aniq manbalarni o'z asariga mohirona tatbiq qiladiki, fakt materiallar yozuvchi laboratoriyasida badiiylashadi. Mahmud G'aznaviy Hindistonni nechog'lik tahqirlagan bo'lsa, nechog'lik toptagan bo'lsa, eng yovuz va qabih ishlarini

shu xalq vakillariga qo'llagan bo'lsa, alloma Abu Rayhon Beruniy hind xalqining yuksak madaniyatini, boy adabiyotini, uzoq tarixini, tilini, san'atini, urf-odatini tadqiq qildi. Beruniy shu orqali zolim sultonga o'z e'tirozini, o'z isyonini bildirdi. Romanda adib buyuk ajdodimizning millatlar va turli xalqlarga yuksak ehtiromini faqatgina "Hindiston" asarini yozganligi bilan ko'rsatib qo'ymaydi. Hindistonda uchratib qolgan yetim bola Subhuni o'z tarbiyasiga olib, xat-savod o'rgatganligi orqali ham ko'rsatib beradi. To'g'ri, bu shunchaki badiiy to'qima bo'lishi ham mumkin, lekin kitobxonda ilm-fanda ham, mehr-shafqatda ham ajdodlarga munosib avlod bo'lish hissini uyg'otishga xizmat qiluvchi vosita hamdir. Yuqoridagi holat orqali yozuvchi bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy obraziga ijobiy xislatlarni yasama tarzda yopishtirmaydi, aksincha, tarixiy haqiqatni ulug' hind farzandi Javoharla'l Neru so'zi bilan isbotlaydi: "Men senga sulton Mahmud G'aznaviy yurishlari to'g'risida gapirgan edim. Biroq men Mahmud davrining boshqa bir buyuk vakili to'g'risida hali gapirmadim. Bu – al-Beruniydir. Cheksiz qirg'inbarot va shafqatsizliklar davrida u hayotga chuqur razm solib, haqiqatning tagiga yetishga intilgan ulug' olim sifatida ajralib turadi..." (Javoharla'l Neru, "Jahon tarixiga bir nazar", 1-jild, 300-bet). Asar-

da Beruniy boboning Hindiston bilan bog'liq bo'lgan o'rinlari qisqa-qisqa berilishiga qaramasdan anchagina. Lekin biroz e'tirozli jihatlar ham uchraydi, masalan, Abu Rayhon Beruniy hind diyoringning Nanda shahrida ekanligida yer shaklining qandayligi haqidagi xayollari mukammal bir shaklga kelgan edi, deb beriladi. Aslida Beruniy G'aznaviy bilan uchrashmasdan oldin yerning shakl-u shamoyilini yasab bo'lganligi haqida to'xtalib o'tmaydi. To'g'ri, adabiyotda badiiy to'qima, ijodiy fantaziya tushunchalari mavjud. Biz keltirib o'tgan nomutanosiblik romanining badiiy qimmatiga zarracha ham putur yetkazmaydi. Odil Yoqubovning "Ko'hna dunyo" romani buyuk ajdodimizning badiiy adabiyotdagi ilk talqinlaridan biri ekanligi bilan ham qimmatlidir.

Xorazmlik yozuvchi Qurbon Muhammad-rizoning "Omonat tuhfa", "Sinov sahnasi" kabi romanlari o'zbek adabiyotidagi Abu Rayhon Beruniy obrazi talqin qilingan asarlar sirasiga kiradi. Romanda Xorazmning ko'p asrlik tarixi bayon qilinadi. Birinchi kitob, ya'ni "Omonat tuhfa"da Beruniy haqida so'z 146-sahifadan boshlanadi. Unga dovur salmoqli so'zboshi va milodiy 712-yillar voqealaridan to Beruniy zamonigacha bo'lgan salmoqli tarixiy hodisalarga to'xtalib o'tilgan. Alloma hayoti va faoliyatiga

bag'ishlangan trilogiya yozishga chog'langan adibimiz ("Bir siqim tuproq" deb nomlangan uchinchi kitob hali nashrdan chiqmagan) bu uchlik uchun batafsil kirish qilganidan dalolatdir. Birinchi kitobda berilgan ulkan tarixiy hodisotlar orasida allomaning bolaligi, o'smirlik yillari va yoshligi qisqa va qisman bayon qilindi. Buni biz kitobda keltirilgan 85 bo'limning 19-bo'limida ko'rishimiz mumkin. Bu bo'limlar sirasiga quyidagi "Ahmad kitobchining o'g'li", "Balogardon", "Yamaniy qilich", "Suiqasd", "Osor al-boqia", "Farmoni oliy", "O'n kunlik Bosh vazir", "Xaloskor" kabilar kiradi. Keng hajmli kitobning muqovasiga Abu Rayhon Beruniy nomi bitilganligidan o'quvchida buyuk ajdodimizning surat va siyrati batafsil bayon qilingandir, degan gumon paydo bo'ladi. Lekin romanni o'qish jarayonida uch asrlik voqealar qamrovi ichida Beruniy bobo tumanli parda ortida qolgandek tuyuladi.

"Sinov sahnasi"da ham deyarli shunday holatni kuzatishimiz mumkin. 57 bo'limdan iborat bu kitobning 17-bo'limida Beruniy obrazi gavdalandirilgan, bu bo'limlarga quyidagi: "Falakiyot xonasi", "Allomalarga tuhfa", "Do'stona fikrlar", "Beruniy - Bosh vazir", "Sulton Mahmudning talabi", "Kutubxona olov ichida", "Oxirgi ogohlantirish" kabilar kiradi. Birinchi kitob muqovasidagi

kitob nomidan tashqari, Abu Rayhon Beruniy deb ko'rsatilgan yozuv bu kitobda ham berilgan, ichidagi holat voqealar bayoni, Beruniy obrazining yoritilishi va qamrovi xuddi birinchi kitobdagiga monand. Kitobda asosan allomaning yig'itlik yillari – ilm-ma'rifatga sho'ng'ishga kirishayotgan pallalari, sevgi tarixi tasvirlanadi. Voqealar Beruniy obrazini ochishga emas, Beruniy obrazi voqealar rivojiga turtki berish uchun xizmat qiladi. Umid qilamizki, nashrdan chiqishi kutilayotgan uchinchi "Bir siqim tuproq" deb nomlangan kitobda Beruniy bobo haqida o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lgan ma'lumotlar bilan birgalikda uning to'laqonli qiyofasi ochib beriladi.

Yuqorida nomlari zikr qilingan adiblarimizning asarlari buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy obrazini yoritishdagi dastlabki qadamlar hisoblanadi. Yosh, navqiron ijod ahli esa allomaning butun hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan katta-katta asarlar yozishiga ishonib qolamiz. Zeroki, tarix haqida, tarixiy shaxslar haqida, xususan, Beruniy bobo haqida yozish vaqti keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Osim M. Jayhun ustida bulutlar. Tarixiy qissalar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1975.

2. Shermuhamedov P. Dahoning tug'ilishi yoxud Abu Rayhon Beruniy qismati. – T.: "Voris nashriyoti", 2009.

3. Yoqubov O. Ko'hna dunyo. – T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2018.

4. Muhammadrizo Q. Omonat tuhfa. – T.: "Noshirlik yog'dusi", 2017.

5. Muhammadrizo Q. Sinov sahnasi. – T.: "Noshirlik yog'dusi", 2017.

6. Sattorov M. "Vatan osmoni". – T.: "Yosh gvardiya", 1974.

7. Ko'bayev Q. "O'zbek qissalarida tarixiy haqiqat va badiiy mahorat", (60–80-yillar) fil. fanlari nomz. diss. 2001.

8. Qurbonboyeva U. Abu Rayhon Beruniy asarlarida Hindiston tasviri // Tamaddun nuri. 2018 №5. – B. 21.

9. Булгаков П.Г. "Жизн и труды Беруний". – Тошкент: "Фан", 1972. – С. 206.

MUNDARIJA

Rustam Musurmon. Gullayotgan chechaklarning bu lbuli.....	3
Hazrat Navoiyning qoraqalpoq adabiyotiga ta'siri va asarlari tarjimai xususida.....	5
Ibroyim Yusupov ijodida inson manfaatlari talqini.....	11
Ulmambet Xo'janazarov ijodida umumbashariy qadriyatlar talqini.....	17
To'liboy Qobulov she'rlaridagi an'anaviylik va o'ziga xoslik.....	22
Uslub va badiiy mahorat.....	28
Pokiza tuyg'ular tarannumi.....	34
Modern she'riyat haqida mulohazalar.....	38
Moderncha talqinda badiiyat va uslub.....	45
Gullayotgan chechaklar.....	53
"Og'abiy" romanida tarixiy haqiqat va milliy kolorit.....	58
O'zbek nasrida Abu Rayhon Beruniy obrazining yoritilishi.....	68

Adabiy-badiiy nashr

Anvar ALLAMBERGENOV

GULLAYOTGAN CHECHAKLAR

Adabiy-tanqidiy maqolalar

Muharrir: *D. Mingboyeva*

Badiiy muharrir: *F. Ermatov*

Sahifalovchi: *N. Soatov*

Musahhih: *Sh. Hakimova*

UO'K: 821.512.133-95

KBK: 83.3(50'zb)

A 45

A 45 Allambergenov, Anvar.

Gullayotgan chechaklar [matn]: *Adabiy-tanqidiy maqolalar* / A. Allambergenov. – Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. – 88 b.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.
100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

☎ (98) 128-30-04. e-mail: mashkhur-press@mail.ru

Bosishga 20.11.2020-yilda ruxsat etildi:

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 ¹/₃₂.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 2,75.

Adadi: 10000 nusxa. Buyurtma №350.

"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.

